



## O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON PREZIDENTLARI OLMAOTA SHAHRIDA NORASMIY UCHRASHUV O'TKAZADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-mart kuni oliy darajadagi norasmiy uchrashuv o'tkazish uchun amaliy tashrif bilan Olmaota shahrida bo'ladi.

Ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida O'zbekiston — Qozog'iston yaxshi qo'shniçilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini izchil mustahkamlash masalalari hamda xalqaro va mintaqaviy ahmiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika, energetika, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirish

hamda faol hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish e'tibor markazida bo'ladi.

Eslatib o'tish joizki, o'tgan yilning aprel oyi boshida O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilarining shunday ikki tomonlama uchrashuvi Xiva shahrida bo'lib o'tgan edi.

O'zA



## PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING TOSHKENT ASSAMBLEYASI:

# XALQARO PARLAMENT DIPLOMATIYASI TARIXIDA YANGI BOSQICH

2025-yil 5-9-aprel kunlari Toshkent Markaziy Osiyo tarixida birinchi marta Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga mezbonlik qiladi. Ushbu tadbir 100 dan ortiq milliy parlamentdan 2000 dan ziyod parlamentariysini birlashtiradi, bu esa asosiy global masalalarni muhokama qilish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Toshkentning ushbu muhim tadbir uchun maydon sifatida tanlanishi yangi O'zbekistonning xalqaro parlament diplomatiyasidagi ta'siri ortib borayotgani va uning demokratik islohotlarga sodiqligini namoyon etib, mintaqadagi konstruktiv siyosiy muloqot markazi sifatidagi maqomini tasdiqlaydi.

Parlamentlararo Ittifoq milliy parlamentlarni birlashtiruvchi eng muhim xalqaro tashkilotlardan biridir. Uning hozirgi faoliyati BMT Bosh kotibi Antoniu Guterriş tomonidan belgilangan tamoyilga asoslangan, u "Parlamentlar nafaqat qonunlar chiqarishi, balki ularning ijrosini xalq nomidan nazorat qilishi kerak", deb bejiz ta'kidlagan edi.

Ushbu fikrni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev to'ldirib, "Parlament haqiqiy demokratiya maktabiga, islohotlarni amalga oshirishda tashabbuskor

va hal qiluvchi kuchga aylanishi kerak", deb uqtirdi.

Bu purma'no so'zlar O'zbekistonning parlament nazoratini kuchaytirish, deputatlar korpusi vakolatlarini yanada kengaytirish, qonun ijodkorligi jarayoni shaffofligini oshirish va amalda ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini aks ettiradi. Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi Toshkentda o'tkazilishi nafaqat mamlakat uchun ijtimoiy-siyosiy, tarixiy voqea, balki Markaziy Osiyoda parlament diplomatiyasini rivojlantirishda yangi bosqichdir.

### Xalqaro parlament diplomatiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi

Parlamentlararo Ittifoq 1889-yilda taniqli parlamentariylar — fransuz Frederik Passi va britaniyalik Uilyam Rendal Kremer tomonidan tashkil etilgan, parlament diplomatiyasi va xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etishni mustahkamlashga qaratilgan birinchi ko'p tomonlama siyosiy platforma. 135 yildan ortiq tarixi davomida tashkilot parlament a'zolarining kichik guruhidan 6,5 milliard kishini ifodalovchi 181 ta

milliy parlament va 15 ta parlamentlararo tashkilotni birlashtirgan global institutga aylandi. XXI asrda tashkilot nafaqat o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, balki global muammolarni hal qilishda ham tobora muhim rol o'ynamoqda.

Bugungi kunda Parlamentlararo Ittifoq demokratik institutlarni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, parlament diplomatiyasini rivojlantirish va Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish yo'lida faol ishlamoqda.

Tashkilot mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish va parlamentlarning qonun ustuvorligini ta'minlashdan iqlim siyosati va inkluziv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishgacha bo'lgan turli sohalaridagi faoliyati samaradorligini oshirish uchun aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Davomi 3-beta

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

### OROL MADANIYAT SAMMITINI YUQORI SAVIYADA O'TKAZISH TO'G'IRISIDA

Orolbo'yi mintaqasida qulay tabiiy muhit yaratish, hududning noyob madaniyati va tarixiy merosini asrab-avaylash hamda keng ommalashtirish, ushbu yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari, innovatsion loyihalar va ijodiy tashabbuslarni amalga oshirish uchun xalqaro hamkorlik va muloqotni yanada kengaytirish maqsadida qaror qilaman:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023-yil 22-24-mart kunlari Nyu-York shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan suv resurslariga bag'ishlangan konferensiyasida O'zbekiston Respublikasi tomonidan Orol madaniyat sammiti loyihasini amalga oshirish tashabbusi ilgari surilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yildan boshlab har o'n sakkiz oyda — bahor yoki kuz faslida Orol madaniyat sammiti (keyingi o'rinlarda — Sammit)ni o'tkazib borish yo'lga qo'yilsin.

3. Birinchi Orol madaniyat sammiti Samarqand iqlim forumi bilan uyg'un holda 2025-yil 4-6-aprel kunlari Samarqand va Nukus shaharlarida yuqori saviyada tashkil etilsin.

4. Quyidagilar Sammitning asosiy maqsad va yo'nalishlari etib belgilansin:  
(a) Orolbo'yida va dunyoning boshqa mintaqalarida yuzaga kelgan ekologik muammolarni muhokama qilish hamda oqilona yechimlarni taqdim etish uchun global platforma yaratish;

Davomi 2-beta

## Tahlil va taqqos

# MADANIYAT VA MILLIY TARAQQIYOT

Barchamiz biladigan oddiy haqiqat — odamlarni madaniyatli yoki madaniyatsizga ajratish bugun paydo bo'lgani yo'q. Savodlilik, tarbiyalanganlik, insonning jamiyat hayotida o'zini tuta bilishi, o'zaro oddiy munosabatlardan tortib, kitoblar, sahna asarlari, filmlar tahliligacha bo'lgan faoliyatimizda shu so'zdan foydalanamiz. Demak, madaniyat, madaniyatlilik darajasi har birimizning mavjudlik belgimiz, jamiyat a'zolarining bir-biridan farqlanuvchi sifatlarini ko'rsatib beradigan muhim omilga aylanib bo'lgan.



Xuddi shu masala bugun ham aynan o'sha davrdagidek butun jamiyatning, har birimizning oldimizdagi dolzarb muammo tarzida namoyon bo'lib turgandek!

Xo'sh, madaniyat o'zi nima? Uni qanday talqin qilish mumkin? Bugungacha mazkur fenomen hodisa bo'yicha yozilgan asarlar, yoqlangan dissertatsiyalarda u haqida yuzlab, minglab bir-biriga o'xshamaydigan, hatto bir-birini inkor etadigan ta'riflar berilgan. Ayrimlar madaniyatni insonning intellektual va ruhiy faoliyatini tartibga keltiruvchi, jamiyat

ijtimoiy-madaniy hayotidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim hodisa deb hisoblasa, boshqalar inson, uning ongli faoliyati, yaratuvchanlik mehnati, odamlar orasidagi faollik darajasi bilan kuchli aloqadorlikdagi hodisa sifatida tan oldi.

Shuningdek, madaniyatga insonning ma'rifatlilik, tarbiyalanganlik, ma'lumotlilik darajasi, kishilarning ko'nikmalari, harakatlarining mahsuli emas, balki insonning ongli faoliyati natijasi deb ta'rif berish ham odat tusiga kira boshladi.

G'arb olimlari, masalan, Immanuel Kantning fikricha, madaniyatning maqsadi barcha odamlarni baxtli qilish, o'z tabiiy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishiga imkon yaratishdir. Faylasufning ta'kidlashicha, insonning tom ma'nodagi mohiyati uning o'z tabiiy, egoistik harakatlari va ehtiyojlaridan yuqori turishi hamda o'z xulqini axloqiy me'yorlarga bo'yusundira olishidir.

I.Kantning xulosasiga ko'ra, "aqli mavjudot tomonidan o'z oldiga maqsad qo'ya olish qobiliyati bu — madaniyat".

Fridrix Shiller esa "Inson hech qachon o'zligidan voz kecha olmaydi. Haqiqiy madaniyat esa shaxsiy va umumiy, rohat va burch, hissiy va aqliy, mazmun va shakl, ideal va voqelik kabi hodisalarni murosaga keltirishdan iborat", deydi.

Sharqda madaniyat masalasiga bo'lakcha munosabatda bo'lingan. Agar G'arbda madaniyatning ustuvor vazifasi sifatida ma'rifat, bilim, aql masalasi e'tirof etilsa, Sharqda ko'proq tarbiya, ma'naviyatga e'tibor berilgan. Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari madaniyat masalasini, asosan, komil inson tushunchasi bilan bog'lab o'rganadi. Masalan, Aziziddin Nasafiy "Insoni komil" asarida komil inson deb yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq, maorifdan iborat to'rt jihat kamolga yetgan bo'lishi kerak, deydi.

U kamolotning belgisi sifatida ikki xususiyatni asos qilib oladi. Birinchisi — hamida axloq bo'lsa ("hamida" — "maqtovga arziydigan xulq"), ikkinchisi — o'z-o'zini tanish. Shu ikki asosning bor-yo'qligiga qarab, odamlarni uch qismga ajratgan.

Davomi 5-beta

## INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Muborak Ramazon hayitini nishonlash arafasida xalqimizga xos ezgulik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va kechirimli bo'lish kabi olijanob fazilatlarining yorqin ifodasi sifatida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni avf etish to'g'risida"gi Farmoni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan 488 nafar shaxs avf etildi.

Afv etilgan shaxslarning 100 nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, 268 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 34 nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashirildi. Shuningdek, 86 nafar shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning 17 nafari chet el fuqarolari, 37 nafari ayol, 37 nafari 60 yoshdan oshgan erkak, 167 nafari yoshlar (shulardan 1 nafari voyaga yetmagan) hamda 5 nafari taqiblangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan avf etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatta munosib o'rin topishlari uchun ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'zA



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

## SANOAT, RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI

### QO'MITA FAOLIYATIDAGI ISLOHOTLARNING AMALIY SAMARASI

Bugun mamlakatimizda mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish uchun zamonaviy texnologiyalarni jalb etgan holda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash borasida keng ko'lamlı dasturlar izchil amalga oshirilayotgani yetakchi tarmoqlar, shu jumladan, energetika, neft va gaz, kon-metallurgiya va kimyo sanoatini rivojlantirishning jadal sur'atlarini saqlash imkonini bermoqda.

Davomi 2-beta

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
QARORI

## OROL MADANIYAT SAMMITINI YUQORI SAVIYADA O'TKAZISH TO'G'RSIDA

## Boshlanishi 1-betda

(b) Orolbo'yi muammolarini hal etishda fanlararo yondashuvni rivojlantirish;

(d) barqaror yechimlar va strategiyalar yaratishga qaratilgan ta'lim dasturi asosida Orol maktabini tashkil etish;

(e) zamonaviy texnologiyalar va an'anaviy me'morchilik asosida "Istiqlol" madaniyat va istirohat bog'i, bog' hududida joylashgan bolalar kutubxonasini qayta barpo etish hamda ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;

(f) yetakchi mahalliy va xorijiy mutaxassislar hamda tashkilotlar bilan hamkorlikda Orolbo'yi mintaqasida suv va tuproq tadqiqotlari olib borish;

(g) Orolbo'yi hududining tuproq va iqlim sharoitiga mos bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlarini o'rganishga ixtisoslashgan laboratoriya platformasini yaratish hamda uni mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarning o'quv-amaliyot maydoniga aylantirish;

(h) Orolbo'yi mintaqasida asrlar davomida shakllangan noyob madaniyat va an'analarni saqlash, himoya qilish va keng ommalashtirish;

(i) xalqaro miqyosda doimiy muloqotlar, amaliyotlar, seminarlar, tadqiqot dasturlarini tashkil etish.

5. Orol madaniyat sammitiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita (keyingi o'rinlarda — Tashkiliy qo'mita) 1-ilovadagi tarkibga muvofiq tuzilsin.

6. Tashkiliy qo'mita (A.N. Aripov):  
(a) ushbu qarorda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha mas'ul davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib borsin;

(b) Sammitga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda yuzaga keladigan tashkiliy masalalarni tezkorlik bilan hal etsin;

(d) Sammit doirasidagi tadbirlar o'tkaziladigan joylarning texnika va telekommunikatsiya uskunalarini bilan jihozlanishini ta'minlasin;

(e) Sammit bilan bog'liq tadbirlar va chet ellik mehmonlarning sayohatini tashkilalashtirsin;

(f) Sammitda qatnashuvchilarning O'zbekistonga kelib-ketishi, ularga viza rasmiylashtirilishi, transport va tibbiy xizmat ko'rsatish masalalarini muvofiqlashtirsin;

(g) Sammit doirasidagi tadbirlar o'tkaziladigan hududlarda obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish ishlari amalga oshirilishini hamda obyektlar va mehmonxona fondining tayyorligini ta'minlasin;

(h) zarur hollarda, Sammitni yuqori saviyada tashkil etish bilan bog'liq tezkor qarorlar qabul qilsin.

7. Belgilansinki:

(a) Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) Tashkiliy qo'mitaning ishchi organi hisoblanadi;

(b) Vazirlar Mahkamasi tomonidan Sammitning moliyalashtirish manbalari belgilanadi hamda xarajatlar smetasi tasdiqlanadi.

8. Orol madaniyat sammitiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Ichki ishlar vazirligi:

(a) Milliy gvardiya bilan birgalikda Sammit doirasidagi tadbirlar o'tkaziladigan hududlarda, shu jumladan, ishtirokchi va mehmonlar to'planadigan joylarda, mehmonxonalarda hamda ularning atrofida jamoat tartibini saqlash;

(b) Sammitga tashrif buyuradigan delegatsiya a'zolari xavfsizligini ta'minlash maqsadida yo'l harakati qoidalariga muvofiq hamrohlik qilish choralarni ko'rsin.

10. Favqulodda vaziyatlar vazirligi Sammit doirasidagi tadbirlar o'tkaziladigan hududlardagi obyektlar hamda ularning atrofida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash ishlari tashkil etsin.

11. Sog'liqni saqlash vazirligi Sammit doirasidagi tadbirlar o'tkaziladigan joylarda tez tibbiy yordam brigadalari faoliyatini tashkil etilishini ta'minlash, shuningdek, sog'liqni saqlash hamda sanitariya normalari, qoidalar va gigiyena normalatlariga amal qilinishi bo'yicha zarur choralarni ko'rsin.

12. Raqamli texnologiyalar vazirligi Jamg'armaning murojati asosida Sammit doirasidagi tadbirlar o'tkaziladigan konferensiyalar va ko'rgazma zallari, matbuot xonalari belgilangan tartibda zarur texnika vositalari, sinxron tarjima jihozlari va internet tarmog'i bilan ta'minlasin.

13. Jamg'armaning talabnomasiga asosan quyidagilarga:

(a) "Uzbekistan Airways" AJga chet ellik ishtirokchilar uchun xalqaro va mahalliy reyslariga aviachiptalarning band qilinishini ta'minlash;

(b) "O'zbekiston temir yo'llari" AJga chet ellik ishtirokchilar uchun qatnovdagi poyezdlarning barcha turlariga temir yo'l chiptalari zaxirasini yaratish va rasmiylashtirish choralarni ko'rish tavsiya etilsin.

14. Tashqi ishlar vazirligi Jamg'armaning viza talabnomalariga binoan, Sammitda ishtirok etadigan xorijiy ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasiga kirish vizalari konsullik yig'irlari va haqiqiy xarajatlarning o'rnini qoplash hisobidan yig'irlarni undirmasdan, zarur hollarda, Toshkent va Samarqand xalqaro aeroportida rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

15. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Jamg'arma bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari vakillari uchun barcha zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan Sammit matbuot markazi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, shuningdek, tadbirni yuqori saviyada xalqaro miqyosda keng yoritish uchun xorijiy ommaviy axborot vositalarini jalb qilish choralarni ko'rsin.

16. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi raisi G.O. Umerova hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi F.U. Ermanov belgilansin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2025-yil 28-mart

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

## SANOAT, RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI

## QO'MITA FAOLIYATIDAGI ISLOHOTLARNING AMALIY SAMARASI

“ Qo'mita xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik qilish, soha faoliyatiga taalluqli bo'lgan atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, kimyoviy, bakteriologik (biologik) va zaharli qurol-yarog'ni taqiyqlash, shuningdek, kimyoviy, biologik, radiologik va yadro materiallari ta'siri xavfini pasaytirish bo'yicha xalqaro shartnomalar doirasida O'zbekistonning majburiyatlari bajarilishini ta'minlab kelmoqda.



Abduvaqqos RAFIQOV,  
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Sanoat, radiatsiya va yadro  
xavfsizligi qo'mitasi raisi

## Boshlanishi 1-betda

Yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish orqali, shu jumladan, atom energetikasini rivojlantirish hisobidan respublikaning elektr energiyasiga nisbatan ortib borayotgan ehtiyojini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilmoqda.

Ayni paytda mazkur islohotlarni uzluksiz davom ettirish va iqtisodiyot drayveri bo'lgan sanoat obyektlarida xavfsizlikni ta'minlashda Prezidentimizning 2024-yil 24-maydagi "Yer qat'ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2024-yil 24-dekabrda "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari hamda 2024-yil 24-maydagi "Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, qo'mita atom energetikasi va yadro texnologiyalari obyektlarida radiatsiya va yadro xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi sohalarida yagona davlat siyosatini yuritish, nazorat qilish uchun javobgar bo'lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilandi.

Mazkur hujjatlar bilan qo'mitaga qator ustuvor vazifalar yuklatildi. Jumladan:

— radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasidagi xalqaro standart va talablarni milliy qonunchilikka joriy etish;

— sanoat xavfsizligini ta'minlashda masofadan nazorat qilish mexanizmini joriy etish;

— xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish;

— sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

— sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish infratuzilmasini rivojlantirish;

— sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda istirohat bog'lari atraksionlarining foydalanishdagi xavfsizlik talablarini qayta ko'rib chiqish.

Yuqorida aytilgan vazifalarning ijrosi yuzasidan o'tgan davrda muayyan ishlar qilindi.

Avvalo, qo'mita tomonidan belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirishda Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlarini ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori dasturilamal bo'lyapti.

Ushbu hujjatlar qabul qilinishi tashkilotning ish samaradorligini ta'minlash hamda qat'iy intizom o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zero, ijro intizomi ish samaradorligini ta'minlovchi eng muhim hamda asosiy faoliyat ko'rsatkichidir. Shu ma'noda, jamiyat hayotining barcha sohalarida kechayotgan islohotlarning samarali amalga oshirilishi, birinchi navbatda, tashkilotning barcha bo'g'inlarida ijro intizomining zarur darajada tashkil etilishiga bog'liq.

Ijro intizomi —  
natijadorlik garovi

Vazirlar Mahkamasida har hafta vazirlik va idoralarning rahbar o'rinbosarlari, nazorat bo'limlari va mas'ul tarkibiy bo'lim boshliqlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borish tizimi yaratilgan.

Ushbu tizimning mantiqiy davomi sifatida qo'mitada har hafta yakunida ijro muddati yaqinlashayotgan hujjatlar tahlil qilinib, topshiriq va vazifalarni belgilangan muddatdan oldin bajarish choralari ko'rilmoqda.

Jumladan, topshiriqlar bajarilishini kunlik tashkil etish bo'yicha oylik kalendar

grafiklarni tasdiqlash hamda rahbar o'rinbosarlarining "yo'l xaritalari" orqali amalga oshirish, barcha darajadagi tarkibiy tuzilmalar rahbarlari va xodimlar faoliyati samaradorligini KPI orqali baholab borish o'z samarasini bermoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Bosh vaziri ko'rsatmasiga asosan, Bosh vazir maslahatchisi rahbarligida vazirlik va idoralarning nazorat bo'limlari rahbarlari va mas'ul xodimlari uchun ijro intizomini mustahkamlashga qaratilgan "iqtisodiy o'qish"lar tashkil etib borilmoqda. Ana shunday o'qishlar qo'mita markaziy apparati va uzing tizim tashkilotlari rahbar va mutaxassislari ishtirokida o'tgan davrda olti marotaba o'tkazildi.

joriy yilning aprel va kelgusi oylardagi topshiriqlar ijrosini ham muddatidan oldin ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Qo'mita faoliyati  
raqamlarda

O'tgan qisqa davr mobaynida qo'mita ishtirokida faoliyat va soha yo'nalishlarini tartibga soluvchi 10 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. 2024-yil yakuni bo'lgan 607 ta tekshiruv o'tkazilib, 9435 ta qoidabuzarlik aniqlandi, 656 ishchiga nisbatan ma'muriy jarimalar qo'llanildi.

Avariya yoki baxtsiz hodisalar keltirib

xavfsizligiga oid bilim sinovdan o'tkazildi. 3600 muhandis texnik xodimni qayta tayyorlash borasida ko'rsatmalar berildi.

Sohani raqamlashtirish bo'yicha qator ishlar qilindi. Xususan, sohaga sun'iy intellektga asoslangan dasturiy ishlanmalarni keng joriy etish bo'yicha Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda sohaning yagona raqamli ekotizimi ishlab chiqilmoqda.

Bir qator vazirlik va idoralarning o'z yo'nalishlari bo'yicha axborot tizimlari unga integratsiya qilinadi.

Ijtimoiy sohadagi xavfsizlikni raqamlashtirish borasida "xavfsiz atraksion" platformasi ishlab chiqilib,

tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, MDH kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi.

Qo'mita xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik qilish, soha faoliyatiga taalluqli bo'lgan atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, kimyoviy, bakteriologik (biologik) va zaharli qurol-yarog'ni taqiyqlash, shuningdek, kimyoviy, biologik, radiologik va yadro materiallari ta'siri xavfini pasaytirish bo'yicha xalqaro shartnomalar doirasida O'zbekistonning majburiyatlari bajarilishini ta'minlab kelmoqda.

Jumladan, xalqaro hamkorlik bo'yicha sanoat xavfsizligi yo'nalishida imzolangan memorandum doirasida (Rossiya, Belarus) 2025-2026-yillarga mo'ljallangan dasturlar tasdiqlandi.

Xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda "Kimyoviy xavfsizlik to'g'risida"gi va "Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish to'g'risida"gi qonunlar loyihasi ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, Atom energiyasi xalqaro agentligining (AEXA) 15 ta va Yevropa Ittifoqining 3 ta loyihasi doirasida turli asbob-uskunalar vazirlik va idoralarga beg'araz tarzda texnik ko'mak sifatida olib berilmoqda.

AEXA Bosh direktorining 2024-yil 4-5-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasiga yuqori darajadagi tashrif doirasida davlatimiz rahbari bilan o'tkazilgan uchrashuvda taqdim etilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha AEXA bilan hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Joriy yil birinchi choragi davomida qo'mita tomonidan yadro xavfsizligi sohasidagi xalqaro shartnoma hisoblanuvchi Yadroviy avariya haqida tekzor xabar berish to'g'risidagi konvensiya hamda Yadro xavfsizligi to'g'risidagi konvensiyaga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi ta'minlandi.

2025-2030-yillarda kimyoviy, biologik, radiatsiya va yadro xavfsizligini ta'minlash sohasidagi xalqaro hujjatlarini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasining Milliy harakatlar rejasini tasdiqlash bo'yicha qarori loyihasi ishlab chiqildi, yaqin muddatda qabul qilinishi kutilmoqda.

Ayni paytda radiatsiya va yadro xavfsizligini tartibga solish bo'yicha normativ-huquqiy baza hamda normativ hujjatlarini takomillashtirish va xodimlar salohiyatini oshirishda hamkorlik qilish maqsadida memorandum loyihalari tayyorlangan, ularni imzolash orqali 2025-yil yakuniga qadar Xitoy va Pokistonning tartibga soluvchi organlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Muxtasar aytganda, Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi tomonidan bajarilgan ishlar samarasi sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasidagi barqarorlik hamda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan muhim qadamlardir. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun esa qat'iy intizom va nazoratni yanada oshirish lozim.



Iqtisodiy o'qishlarda Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi hamda Adliya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarini ijrosini nazorat qilish boshqarmasi xodimlari ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Prezidenti topshiriqlari bo'yicha 2024-yil yakunida qo'mita tomonidan jami 49 ta topshiriq ijrosi ta'minlangan bo'lsa, joriy yilning birinchi choragida qo'mitaga 47 ta topshiriq belgilangan va barchasining ijrosi muddatidan oldin bajarildi.

Sohadagi muhim islohotlarni izchil davom ettirish hamda qo'mitaga yuklatilgan topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishida Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi va Adliya vazirligi tomonidan mas'ullar biriktirilgan, ular ko'magida hamda qo'mita rahbariyatining qat'iy nazorati ostida

chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha profilaktik ishlarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Respublikadagi 4427 ta ko'p kvartirali uyda 11 ming 428 ta lift va 148 ta madaniyat va istirohat bog'idagi atraksionlar xatlovdan o'tkazilib, ularda mavjud qurilmalar xavfsizligi tekshirildi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijasida 899 ta tekshirish dalolatnomasi tuzildi, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligiga oid me'yoriy hujjatlar talablari 2862 marta buzilgani aniqlandi. Aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha 747 ta yozma ko'rsatma, 121 ta ma'lumotnoma rasmiylashtirildi.

Har bir soha rivoji kadrlar tajribasiga bog'liq. Joylarda sanoat korxonalarida faoliyat yuritayotgan 30 mingdan ortiq ishchi-xodimning sanoat, radiatsiya va yadro

“ Har bir soha rivoji kadrlar tajribasiga bog'liq. Joylarda sanoat korxonalarida faoliyat yuritayotgan 30 mingdan ortiq ishchi-xodimning sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligiga oid bilim sinovdan o'tkazildi. 3600 muhandis texnik xodimni qayta tayyorlash borasida ko'rsatmalar berildi.

## Samarali hamkorlik

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida birinchi kunlardan boshlab ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash eng muhim ustuvor yo'nalish deb belgilandi.

So'ngi yillarda O'zbekiston keng doiradagi xorijiy sheriklar, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan do'stona, o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi.

Yuritilayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat samarasida dunyoning deyarli barcha mintaqalaridagi mamlakatlar, shuningdek, yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan samarali munosabatlar yanada mustahkamlandi.

BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik

## PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING TOSHKENT ASSAMBLEYASI:

Boshlanishi 1-betda

Dastlab Parlamentlararo Ittifoq maslahat birlashmasi bo'lib, parlament diplomatiyasidan urushlarning oldini olish vositasi sifatida foydalanish va xalqaro nizolarni muloqot orqali hal qilish uchun tashkil etilgan.

Muhim bosqichlardan biri Parlamentlararo Ittifoqning Millatlar Ligasi, keyinchalik esa BMT bilan hamkorligi bo'lib, bu yerda parlament tajribasi xalqaro institutlarni demokratlashtirish uchun ishlatilgan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Parlamentlararo Ittifoq faoliyatini kengaytirib, dunyoda mustamlakachilikni tugatish, inson



**Akmal SAIDOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati,  
Parlamentlararo  
Ittifoq vitse-prezidenti  
(2020-2023-yillar), akademik

huquqlarini himoya qilish va tinchlikparvarlik masalalariga e'tibor qaratadi. Bu davrda tashkilot xalqaro huquqni shakllantirish, demokratik boshqaruv tamoyillarini ilgari surish va turli mamlakatlarning global jarayonlarda inklyuziv ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

### Milliy parlamentlar hamkorligining global platformasi

Parlamentlararo Ittifoqning tor doiradagi ekspertlardan global institutga o'tish evolyutsiyasi jahon hamjamiyatining o'zgaruvchan geosiyosiy vaziyatda yanada yaqinroq hamkorlikka intilishini aks ettiradi.

Tashkilot asoschilari xizmatlarini e'tirof etish maqsadida Kremer-Passi mukofoti ta'sis etildi, u parlamentarizm va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun beriladi.

2018-yil 22-mayda BMT Bosh Assambleyasi 30-iyunni Xalqaro parlamentarizm kuni sifatida rasman ta'sis etdi. 1889-yilning shu kuni Parijda Parlamentlararo Ittifoqning birinchi xalqaro konferensiyasi ochildi va global miqyosda parlament diplomatiyasi tarixini boshlab berdi.

Bugungi kunda Parlamentlararo Ittifoq eng yirik global parlamentlararo tashkilot bo'lib, 46 mingga ortiq parlamentiy manfaatini ifodalaydi, bu esa uni muloqot, parlament diplomatiyasi va xalqaro hamkorlik uchun eng muhim platformaga aylantiradi. Tashkilot milliy qonun chiqaruvchi organlar tajribasi va amaliyotini uyg'unlashtirib, zamonaviy muammolarni bartaraf etish bo'yicha umumiy strategiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Shu bois, Parlamentlararo Ittifoq xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va demokratik tamoyillarni ilgari surishda muhim rol o'ynaydi. Tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

**Birinchi yo'nalish. Parlament diplomatiyasini rivojlantirish.** Parlamentlararo Ittifoq turli mamlakatlar parlamentlari o'rtasida muloqot, global muammolarni muhokama qilish va yechimlar topish uchun platforma yaratadi. Tashkilot parlamentlarga demokratik tamoyillarni, hokimiyat shaffofligini va hisobdorligini mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yordam beradi.

**Ikkinchi yo'nalish. Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash.** O'sib borayotgan geosiyosiy tahdidlar sharoitida Parlamentlararo Ittifoq mojarolarni hal qilish, xalqaro huquqni rivojlantirish va tinchlikparvarlik faoliyatiga ko'maklashish borasidagi rolini kuchaytirmoqda. Tashkilot inqirozlarning oldini olish va mamlakatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida parlamentlararo hamkorlikni ko'lab-quvvatlaydi. Ziddiyatli hududlarda inson huquqlarini himoya qilish, zo'rvonlikning oldini olish va insonparvarlik yordami ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Uchinchi yo'nalish. Demokratiya va inson huquqlarini ilgari surish.** Demokratiya inson huquqlari himoyasi va qonun ustuvorligisiz barqaror bo'lmaydi. Parlamentlararo Ittifoq erkin va adolati saylovlarni faol o'z'lab-quvvatlaydi, parlament a'zolari huquqlarini himoya qiladi va kamsitishning har qanday shakliga qarshi kurashadi. Siyosiy erkinliklarni cheklash, muxolifat yetakchilarini ta'qib qilish va deputatlarga nisbatan tahdidlarga qarshi kurash muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Tashkilot, shuningdek, saylov jarayonlari shaffofligini ta'minlash va davlat institutlariga bo'lgan ishonchni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

**To'rtinchi yo'nalish. Siyosatda gender tenglik.** Xotin-qizlarning qonunchilik faoliyatidagi ishtirokini rag'batlantirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. 1997-yildan buyon Gender tenglik bo'yicha maqsadli dastur amal qilmog'ida, uning doirasida jahon parlamentlarida xotin-qizlar ulushi monitoringi olib borilyapti. 2024-yilda bu ko'rsatkich 26,7 foiz atrofida

# XALQARO PARLAMENT DIPLOMATIYASI TARIXIDA YANGI BOSQICH

bo'lsa-da, mamlakatlar o'rtasidagi sezilarli farq saqlanib qolmoqda. Tashkilot parlamentlarni xotin-qizlar vakilligini oshirish bo'yicha samarali mexanizmlar, jumladan, kvotalar, murabbiylik dasturlari va xotin-qizlarning siyosatdagi ishtiroki uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni joriy etishga chaqiradi.

**Beshinchi yo'nalish. Yoshlar ishtirokini kuchaytirish.** Yosh siyosatchilar aksariyat mamlakatlar parlamentlarida yetarlicha vakillikka ega emas. Bugungi kunda 40 yoshgacha bo'lgan deputatlarning o'rta ulushi atigi 17,5 foizni tashkil etadi. "I Say Yes to Youth in Parliament!" (Men parlamentda yoshlarga "Ha" deyman!) yosh yetakchilarni jalb qilish, siyosatchilarning yangi avlodini ko'lab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarni shakllantirish va ularning qonun ijodkorligi faoliyatida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan.

Parlamentlararo Ittifoq nafaqat parlamentlararo hamkorlik platformasi, balki global boshqaruvning muhim instituti bo'lib qolmoqda. Hozirgi sharoitda uning xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va inson huquqlarini ilgari surishdagi rolini kuchaytirish zarur, chunki aynan shu yo'nalishlar butun dunyoda barqaror rivojlanish va tinchlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

### Parlamentlararo Ittifoq rahbarlari

**Tuliya Akson (Tanzaniya) — Parlamentlararo Ittifoq prezidenti.**

Tuliya Akson 2023-yilda Parlamentlararo Ittifoq prezidenti etib saylandi va bu lavozimni egallagan birinchi afrikalik ayol bo'ldi. U boy siyosiy va huquqiy tajribaga ega bo'lib, gender tenglik va inson huquqlarini xalqaro miqyosda targ'ib qilishda yetakchi o'rinni egallaydi.

2020-yilda u parlament nazoratini kuchaytirish, hokimiyat shaffofligini oshirish va aholining zaif qatamlarini himoya qilish bo'yicha faol ishlagan Tanzaniya parlamentining birinchi ayol spikeri sifatida tarixga kirdi.

Yuridik ta'lim va fan doktori ilmiy darajasini olgan Tuliya Akson ko'p yillar davomida huquqni himoya qilish faoliyati bilan shug'ullangan. Uning faoliyati xotin-qizlar va yoshlarning siyosatdagi rolini kuchaytirish, kamsitishlarga qarshi kurashish va parlament faoliyatidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Uning rahbarligida Ittifoq prezidenti etib saylanishi global miqyosda inklyuziv siyosiy jarayonlarni ilgari surishda muhim qadam bo'ldi, shuningdek, Tanzaniyaning xalqaro parlament hamkorligidagi rolini namoyon etdi.

**Martin Chungong (Kamerun) — Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi.**

Martin Chungong Parlamentlararo Ittifoq tizimida 30 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat yuritib kelayotgan, parlamentarizm sohasidagi eng tajribali mutaxassislardan biridir.

2014-yilda u Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi lavozimini egallagan birinchi afrikalik bo'lib, bu tashkilot tarixida muhim voqeaga aylandi. Bungacha u 20 yildan ortiq vaqt davomida Kamerun Milliy Assambleyasida ishlagan, u yerda qonun ijodkorligi jarayoni, parlament nazorati va davlat boshqaruvi masalalariga ixtisoslashgan.

Parlamentlararo Ittifoqda ishlagan yillarida u mamlakatlar o'rtasidagi parlament hamkorligini kuchaytirish, ayollar va yoshlar huquqlarini kengaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, xalqaro majburiyatlarini bajarilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha islohotlarni faol ilgari surdi.

"New African" jurnali talqiniga ko'ra, 2022-yilda Chungong eng nufuzli 100 afrikalik ro'yxatiga kiritildi, bu esa uning parlamentarizm va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi muhim rolini tasdiqladi.

Uning rahbarligida Parlamentlararo Ittifoq o'z ta'sir doirasini sezilarli darajada kengaytirib, mojarolarni hal qilish, XXI asrning asosiy muammolari bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga ko'maklashadigan global parlament diplomatiyasi platformasiga aylandi.

### Milliy parlamentlar — barqaror rivojlanish drayveri

Parlamentlararo Ittifoq milliy qonun chiqaruvchi organlar va xalqaro institutlar o'rtasida vositachilik qilish orqali parlamentlarni Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirishga faol jalb qilmoqda. 2025-yil fevral oyida BMTda bo'lib o'tgan parlament eshituvlari chog'ida Parlamentlararo Ittifoq prezidenti Tuliya Akson BRMni amalga oshirish bo'yicha milliy hisobotlarni tayyorlashda dunyo parlamentlarining atigi uchdan bir qismi ishtirok etayotganini ta'kidladi. Shu bilan birga, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur moliyaviy resurslar taqchilligi yaqin besh yil ichida 2,5-4 trillion dollarga baholalanmoqda.

Bunday vaziyatda parlamentlar barqaror taraqqiyotni ta'minlashda yetakchi rolni o'z zimmasiga olishi lozim. Ularning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi.

**Qonunchilik yordami** — BRMni milliy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish, innovatsiyalarni ko'lab-quvvatlash hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish.

**Budjet nazorati** — moliyaviy resurslarning adolati va samarali taqsimlanishini ta'minlash, ekologiya, sog'liqni saqlash, ta'lim hamda ijtimoiy himoya sohasidagi tashabbuslarni ustuvor moliyalashtirish.

**Shaffoflik va hisobdorlik** — xalqaro majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat dasturlari samaradorligini monitoring qilish.

Parlamentlar bugungi kunda nafaqat qonun chiqaruvchi organlar, balki global barqaror rivojlanish jarayonining asosiy ishtirokchilardir. Ularning faoliyati milliy manfaatlar doirasidan chetga chiqadi: qonunchilik bazasini shakllantirish, Budjet jarayonlarini nazorat qilish va hisobdorlikni ta'minlash BRMni amalga oshirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Parlament a'zolarining jamoaviy sa'y-harakatlari xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish, global iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilish va BRMni amalga oshirish uchun milliy hukumatlarning mas'uliyati darajasini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat shunday maqsadli yondashuvda barqaror rivojlanish shunchaki xalqaro deklaratsiya emas, balki dunyoni yaxshi tomonga o'zgartira oladigan real mexanizmga aylanadi.

### Parlamentlararo Ittifoq va O'zbekiston: parlamentlararo aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvi

Keyingi yillarda O'zbekiston Parlamentlararo Ittifoq, EXHT Parlament Assambleyasi, Yevroparlament, TurkPA, MDH Parlamentlararo Assambleyasi faoliyatida ishtirok etib, xalqaro parlament hamkorligi mexanizmlariga faol integratsiyalashmoqda.

Xitoy faylasufi Shan Yan "Yaxshi qonun xalqqa hurmat ifodasidir", deb qayd etgan bo'lsa, Tomas Jefferson "Parlamentning haqiqiy qudrati uning har bir fuqaro manfaatlarini ifodalash qobiliyatidir", degan edi. Shu bois, aynan globallashuv davrida O'zbekiston parlament diplomatiyasini



## PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 150-YUBILEY ASSAMBLEYASI

**“ YUBILEY ASSAMBLEYAGA TOSHKENT MEZBONLIK QILISHI O'ZBEKISTONNING XALQARO PARLAMENT DIPLOMATIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QO'SHAYOTGAN HISSASINING MUHIM E'TIROFI BO'LADI.**

kuchaytirish va BRMni milliy rivojlanish strategiyasiga kiritish bo'yicha tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Xususan, O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadalashtirishda parlamentlarning roli to'g'risida rezolyutsiya qabul qilindi, u 80 ta mamlakat tomonidan ko'lab-quvvatlandi. Ushbu hujjat BRMni amalga oshirish ustidan parlament nazoratining muhimligini ta'kidlab, milliy qonun chiqaruvchi organlarning xalqaro jarayonlardagi rolini mustahkamladi.

O'zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorligi amaliy va institutsional xarakterga ega: Oliy Majlis palatalari vakillari Ijroiya qo'mitada, turli qo'mitalarda faol ishladi, shuningdek, Parlamentlararo Ittifoqning xotin-qizlar va yoshlar forumlarida ishtirok etdi.

**Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda amalga oshirilgan asosiy tadbirlar:**

1. "Parlamentda yoshlarni ko'lab-quvvatlaymiz" yoshlar parlament forumi (2021-yil, 22-iyun).

2. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro forum (2021-yil, 23-24-iyun), uning yakunlari bo'yicha Barqaror rivojlanishni ta'minlashda dunyo parlamentlarining atigi uchdan bir qismi ishtirok etayotganini ta'kidladi. Shu bilan birga, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur moliyaviy resurslar taqchilligi yaqin besh yil ichida 2,5-4 trillion dollarga baholalanmoqda.

3. Parlament ayol rahbarlarining 14-sammiti (2022-yil, sentabr). Gender tenglik va ayollar huquqlarini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan tadbir turli mamlakatlar parlament



a'zolari o'rtasida tajriba almashishga xizmat qildi.

4. "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik" II xalqaro global forumi (2023-yil, 30-noyabr). Uning yakunlari bo'yicha parlamentlararo hamkorlikning muhim jihatlari qamrab olgan Toshkent kommunikasi qabul qilindi.

5. O'zbekiston Prezidentining Parlamentlararo Ittifoq delegatsiyasi bilan uchrashuvi (2022-yil, sentabr). Unda parlament hamkorligi istiqbollari, demokratik islohotlar va xalqaro tajribani milliy qonunchilik tashabbuslariga integratsiya qilish masalalari muhokama qilindi.

6. O'zbekistonning Parlamentlararo Ittifoqning asosiy hamkori sifatidagi rolini mustahkamlovchi Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasini o'tkazish

uning vakolatlarini kengaytirish va demokratik mexanizmlarni joriy etishda sezilarli yutuqlarga erishildi.

BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan "Parlament kuchli bo'lsa, demokratiya gullab-yashnaydi", degan edi. Bu fikrni O'zbekistonda Oliy Majlis palatalarining mamlakatning asosiy demokratik instituti sifatidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan tizimli islohotlar yorqin aks ettiradi. Prezidentimiz "Parlament nazorati — bu, avvalo, "xalq nazorati, xalq so'rovi" ekanini unutmazlik lozim", deb bejiz uqitirmagan edi.

**O'zbekistonda parlament islohotlarining asosiy yutuqlari:**

— umumxalq referendum natijalariga ko'ra yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish (2023-yil). Bosh qonun parlament — Oliy Majlis palatalarining vakolatlarini sezilarli darajada kengaytirdi, ularning o'zaro tiyib turish va manfaat muvozanati tizimidagi rolini kuchaytirdi;

— parlament institutlari samaradorligini oshirish, huquqiy davlatni rivojlantirish va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan 20 dan ortiq yangi qonun ishlab chiqish va qabul qilish;

— hukumat va sud tizimi faoliyati ustidan parlament nazorati mexanizmlarini joriy etish, bu esa davlat jarayonlarining hisobdorligi va shaffofligini oshirdi;

— asosiy masalalar — korrupsiyaga qarshi kurashish, gender tenglik, xotin-qizlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangi parlament komissiyalarini tuzish. Ushbu tashabbuslar dolzarb muammolarga yanada samaraliroq javob berish imkonini berdi;

— parlamentda xotin-qizlar va yoshlar vakilligining o'sishi. Bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi xotin-qizlardan iborat, bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston mintaqada yetakchilardan biri hisoblanadi. Yoshlarning qonun ijodkorligi jarayonidagi faol ishtiroki boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va yanada inklyuziv siyosatni shakllantirishga yordam beradi.

Uinston Cherrill ta'kidlaganidek, "Parlament demokratiyaning yuragi, uning ovozi esa xalq ovozi". Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimizning quyidagi fikri diqqatga sazovor: **"Eng muhimi, deputatning ovozi — bu xalq ovozi ekanini hech qachon unutmazligimiz zarur"**. Aynan shu tamoyil O'zbekiston parlamentini isloh qilishning asosini tashkil etadi, bunda deputatlar va senatorlar nafaqat qonunlarni qabul qiladi, balki aholi va hukumat bilan faol hamkorlik qilib, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga erishadi.

Yubiley forumini o'tkazish uchun Toshkentning tanlanishi O'zbekistonning xalqaro siyosatdagi o'rni ortib borayotgani, demokratik qadriyatlariga sodiqligi va global darajada parlament diplomatiyasini chuqurlashtirishga intilishini tasdiqlaydi.

### 150-assambleyaning asosiy mavzulari

Parlamentlar tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdan tortib, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishgacha bo'lgan global muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynashi mumkin va kerak. Bunday sharoitda O'zbekiston nafaqat xalqaro tashabbuslarda ishtirok etishga, balki global muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni taklif qilish orqali parlament diplomatiyasini asosiy markazlardan biriga aylantirishga intilmoqda.

Parlamentlararo Ittifoqning Toshkentda bo'lib o'tadigan 150-assambleyasi "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat yo'lidagi parlament harakatlari" mavzusi doirasida butun jahon hamjamiyati uchun dolzarb bo'lgan keng ko'lamli masalalarni qamrab oladi. Asosiy mavzular orasida:

1. **Parlament diplomatiyasi nizolarning oldini olish vositasi sifatida.** Global beqarorlik sharoitida parlamentlar tinchlikparvarlik jarayonlarida muhim rol o'ynaydi, muloqot, diplomatik muzokaralar va xalqaro inqirozlarni hal qilishga ko'maklashadi.

2. **Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda parlamentlarning roli.** Barqaror rivojlanish maqsadlari ijrosi ustidan parlament nazorati, ekologik tashabbuslarni qonuniy tartibga solish va "yashil" iqtisodiyotga o'tish masalalari muhokama markazida bo'ladi.

3. **Parlament faoliyatida gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish.** Qonun chiqaruvchi organlarda ayollar vakilligini oshirish, siyosatda ayollar uchun o'siqlarni bartaraf etish va gender tenglik bo'yicha strategiyalarni amalga oshirish.

4. **Parlamentlararo faoliyat samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish.** Qonun ijodkorligi faoliyatiga raqamli yechimlarni joriy etish, elektron parlamentni rivojlantirish va kibernetikalar sharoitida ma'lumotlarni himoya qilish.

5. **Xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va kibertahdidlarga qarshi kurash choralarini.** Xavfsizlik sohasida parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, global tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish va kibernetik sharoitida inson huquqlarini ishonchli himoya qilish.

Bundan tashqari, assambleya doirasida yosh parlament a'zolarining global forumi va Xalqaro xotin-qizlar parlament forumi o'tkaziladi. Bu Parlamentlararo Ittifoqning inklyuzivlik va qorab qabul qilish jarayonlariga yoshlar va ayollarni jalb qilishga sodiqligini ko'rsatadi.

### Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi: parlament diplomatiyasi tarixida yangi sahifa

O'zbekiston xalqaro parlament maydonida o'z mavqei jadal mustahkamlamoqda. Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning yubiley assambleyasi o'tkazilishi mamlakatning parlamentarizmi isloh qilish va demokratik institutlarni yanada rivojlantirish borasidagi muvaffaqiyati e'tirofidir. Shu o'rinda Antoniu Gutierrez o'rni qayd etganidek, parlament a'zolari qonunlar orqali barqaror rivojlanishga erishishga sezilarli hissa qo'shishlari mumkin. O'zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq ishida faol ishtirok etishi, asosiy xalqaro forumlarni o'tkazishi va ilg'or qonunchilik amaliyotlarini joriy etishi mamlakatimizning ochiqlik, barqaror rivojlanish va parlamentarizm tamoyillariga sodiqligini amalda tasdiqlaydi.

Shubhasiz, yubiley assambleyaga Toshkent mezbonlik qilishi O'zbekistonning xalqaro parlament diplomatiyasini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasining muhim e'tirofi bo'ladi. Bu nafaqat mamlakatning xalqaro maydondagi mavqei mustahkamlaydi va jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi, balki o'zbek parlamenti diplomatiyasini rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini belgilaydi.

# KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton

## ENDI VAZIR VA HOKIMLAR

### KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA DASTURINI HIMOYA QILADI



**Akrom TOSHPOLATOV, Parlament tadqiqotlari instituti direktori, yuridik fanlar doktori**

#### Yangi mexanizm qanday ishlaydi?

Prezidentimiz shu yil 5-mart kuni Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida korruptsiyaga qarshi kurash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha muhim tashabbusni ilgari surdi. Ushbu tashabbusga ko'ra, bundan buyon vazirlar va hokimlar lavozimiga tayinlanishdan oldin korruptsiyaning oldini olish bo'yicha aniq rejalarini parlament va mahalliy kengashlar oldida himoya qiladi.

Ushbu tashabbus davlat xizmatlari korruptsiyaga qarshi kurash borasidagi mas'uliyatini oshirish, lavozimlarga halol va fidoyi kadrlarni tanlash, shuningdek, rahbarlar faoliyatining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Rahbar mas'uliyati

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov — bu korruptsiyadir". Shu bois, so'ngi yillarda

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha institutsional asoslar yaratildi. Jumladan, Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, agentlik tashkil etildi, parlament palatalarida mas'ul qo'mitalar faoliyati yo'lga qo'yildi, jamoatchilik nazorati mexanizmlari yaratildi va OAVga erkinlik berildi.

Korruptsiyaga qarshi kurashning eng muhim jihatlardan biri rahbarlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligidir. Prezidentimiz "Davlat xizmatchisi, bu avvalo xalqning xizmatkori. Bu haqiqatni esdan chiqarishga hech kimning haqqi yo'q!" deya rahbarlarni xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilish, korruptsiyaga qarshi kurashda faol bo'lishga da'vat etdi.

O'zbekistonda joriy etilayotgan yangi mexanizmga ko'ra, vazirliklar rahbarlari lavozimiga tayinlanishdan oldin korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha aniq rejalarini Oliy Majlis palatalarida himoya qiladi. Xuddi shunday hokimlar ham xalq deputatlar mahalliy kengashlariga o'z dasturini taqdim etadi.

Bu rejalarda quyidagilar aks etishi kutilmoqda: idora faoliyatidagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari, korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar, rahbarning o'z sohasida korruptsiyaning oldini olish bo'yicha takliflari, amalga oshiriladigan islohotlarning aniq muddati va natija ko'rsatkichlari.

Yangi tizimning o'ziga xos jihati shundaki, rahbarlardan nafaqat reja taqdim etish, balki uning ijrosi yuzasidan ham muntazam hisobot berib borish talab etiladi. Bu esa rahbarlar mas'uliyatini oshirish, faoliyatini parlament va jamoatchilik nazoratiga olishga xizmat qiladi.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

#### Parlament nazorati kuchayishi

Korruptsiyaga qarshi kurashishda parlamentning roli yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Yig'ilishda parlament oldiga korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qancha muhim vazifalar qo'yildi. Ulardan biri — rahbarlarning korruptsiyaga qarshi kurash dasturlarini muhokama qilish va tasdiqlash.

Ushbu tashabbus natijasida Oliy Majlis palatalari qo'mitalari rahbarlarning dasturlarini ko'rib chiqish jarayonida ularning korruptsiyaga qarshi kurash borasidagi salohiyati, bilim va ko'nikmalarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, parlament tomonidan rahbarning taqdim etayotgan dasturlarida keltirilgan korruptsiyaga qarshi kurash choralarini qanchalik samarali va real ekanini tahlil qilindi.

Parlament nazorati tizimining yana bir muhim jihati — vazirlarning dasturi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarini parlament qo'mitalarida eshitishdir. Agar vazirning dasturi amalga oshirishda samarasiz

deb topilsa, unga nisbatan tegishli choralar ko'rish, hatto ishonchsizlik bildirish masalasi ko'rilishi va hukumaga kiritilishi mumkin. Bu esa kelgusida O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashda keng qamrovli institutsional yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Mahalliy kengashlar — bu illatga qarshi kurashda muhim bo'g'in

Korruptsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallada maishiy korruptsiya shaklida sodir etilayotgani haqidagi ma'lumot yig'ilishda alohida ta'kidlandi. Shu sababli ham mahalliy darajada korruptsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tarkibi to'liq yangilanadi. Ularga viloyat xalq deputatlari kengashi raislari

#### Xorij tajribasi

Korruptsiyaga qarshi kurashda samarali natijalarga erishgan xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko'ra, davlat xizmatiga halol va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ular faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash korruptsiyani kamaytirishning muhim omillaridan.

Masalan, Singapurda davlat xizmatiga nomzodlar maxsus tanlov asosida saralab olinadi va ularning korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi bilim va ko'nikmasi sinovdan o'tkaziladi. Norvegiyada esa vazirlar va yuqori lavozimdagi amaldorlar parlament oldida muntazam hisobot berib boradi, jumladan, korruptsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha ham.

Daniya, Yangi Zelandiya, Finlyandiya kabi korruptsiya darajasi past mamlakatlarda rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tanlashda ularning halolligi va korruptsiyaga munosabati muhim mezon. Shuningdek, ularda parlament nazorati tizimi yuqori darajada rivojlangan.

O'zbekistonda joriy etilayotgan yangi mexanizm — vazir va hokimlarning korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha dasturlarini parlament va mahalliy kengashlarda himoya qilishi tizimi aynan shu xalqaro tajribalarga asoslangan va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilmoqda.

#### "Halollik vaksinasi" bilan emlash

Davlatimiz rahbari "Korruptsiyaning oldini olish — davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni "halollik vaksinasi" bilan emlashdan boshlanadi", dedi. Bu metafora korruptsiyaga qarshi kurashning profilaktik choralarini, ayniqsa, rahbar kadrlarni

tarbiyalash va tayyorlashga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Rahbarlarning korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha aniq rejalar tuzishi va ularni himoya qilishi — "halollik vaksinasi"ning muhim tarkibiy qismi. Bu jarayon rahbarlarni korruptsiyaga qarshi ishlashga undaydi. Ularning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshiradi. Shuningdek, jamoatchilik oldida zimmasiga majburiyat olishga o'rgatadi.

Parlament va mahalliy kengashlar oldida hisobot berib borishi esa amaldorlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishi uchun mas'uliyatini oshiradi, ular faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi.

Korruptsiyaga qarshi kurash umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishidir. Prezidentimiz shu fikrni ilgari surar ekan, korruptsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik ishtiroki muhimligini qayd etdi.

Vazir va hokimlarning korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha dasturlarini parlament va mahalliy kengashlarda himoya qilishi va ularning ijrosi to'g'risida hisobot berib borishi jarayonlari ochiq, oshkora tarzda o'tkazilishi, ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi belgilangan. Bu esa jamoatchilikning rahbarlar faoliyatini baholash, ularning majburiyatlarini nazorat qilish imkoniyatini oshiradi.

#### Vazir va hokimlar oldidagi yangi vazifalar

Davlatimiz rahbari tomonidan taklif etilayotgan mutlaqo yangi tizim doirasida vazir va hokimlar korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha qator muhim vazifalarni amalga oshirishi zarur. Jumladan:

birinchi — o'z sohasi va hududidagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni chuqur tahlil qilish; ikkinchi — nazari va hududida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq va samarali chora-tadbirlarni belgilash;

uchinchi — davlat xizmatlarini raqamlashtirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

to'rtinchi — korruptsiyaning oldini olish bo'yicha jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Bundan tashqari, vazir va hokimlarning dasturida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq maqsadlar, ularga erishish yo'llari va natija ko'rsatkichlari aks etishi zarur.

Korruptsiyaga qarshi kurash strategiyasining uzviy qismi bo'lgan bu islohot pirovardiga mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish, davlat boshqaruvidagi shaffoflikni ta'minlash, xalq va davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

# BAHORNING BIR KUNI YILGA YILGA TATIYDI

## Hududlar hayoti

**Yangilanish, yasharish fasli Navro'z yerga amal, yurtga qut-baraka kelganidan darak berdi. Dala-dashtlar gulu anbarlarga burkanmoqda. Yelkasa ketmon tashlagan bobodehqon yaratuvchilik yumushlari bilan andarmon. U odamlarga rizq-ro'z ulashish ilinjida yaxshi niyatda mehnat qilyapti, izlanyapti.**

Zo'rovon tumanida fermer xo'jaliklari yurtimizda birinchilardan bo'lib tashkil etilgan. Sohadagi joriy etilgan yangi tizim odamlarning yerga munosabatini o'zgartirdi. Ekin maydonlari hosildorligi qariyb ikki hissa oshdi. O'tgan yili tumanida 4900 gektar maydonda paxta, 6600 gektar maydonda bug'doy yetishtirildi. Paxtadan olingan hosildorlik getkariga o'rtacha 42, g'alladan 60-65 sentnerga to'g'ri keldi. G'o'zaning S-8290, S-6775, shuningdek, Xitoy navlari ekilib, 18 ming 400 tonna qimmatbaho sanoat xomashyosi terib olindi.

Bu yilgi mavsumda tumanidagi 140 ta fermer xo'jaligining 4850 gektar yerida chigit ekish rejalashtirilgan. Bu maqsadlar uchun 12 ta otryad tuzilgan bo'lib, fermer xo'jaliklariga yer tayyorlash va chigit ekish uchun 410 ta

bir maromda qonib suv ichib, hosildorligi yuqori bo'lishi imkoniyatini beradi. Hosil qo'lda emas, terim mashinalari yordamida qisqa fursatlarda yig'ishtirib olinadi va kelgusi yilga erta taraddud ko'riladi.

Qishloq xo'jaligiga fermerlar va klaster tizimini o'zaro uyg'unlashtirish mexanizmi joriy qilingani bu boradagi ishlar ko'lamin yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada odamlarning yerga, mulkka egalik hissi oshib, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi ko'tarilishi barobarida yetishtirilgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari tubdan yaxshilanyapti.

Yangilikka intiluvchi, yer bilan tillashuvchi dehqon-fermerlar bu yil ham mo'lj hosil olish harakatida, — deydi Zo'rovon



texnika birlashtirilgan. Mavsumda intensiv texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zo'rovonlik fermerlar bu borada o'ziga xos tajriba to'plagan. Endilikda chigit 76 sxemada, getkariga 200 ming tup ko'chat qoldirish texnologiyalari asosida parvarishlanadi. Ekin maydonlari lazerli yer tekislash uskunasi yordamida tayyorlanadi. Bu samarali usul g'o'za

tumani Fermerlar kengashi agronomi Azizbek Jobirov. — Fermer xo'jaliklarining har biri o'ziga xos yer va suv sharoitiga ega. Ularda bir xildagi agrotexnik tadbirlarni tatbiq qilib bo'lmaydi. Bunda malakali mutaxassislar, ishini ustasi bo'lgan bobodehqonlar tavsiyalari, maslahatlariga tayyanapmiz. O'zaro fikr almashish, dehqonchilikka innovatsion usullarni joriy etishda hamkorlik qilish, yangi



tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muhim amallardan.

Har bir sohada yangilikka intilish, ilg'or texnologiya va usullarni joriy etish, jahon tajribasi ish uslublaridan unumli foydalanish zarur. Endi eskicha ish, qarashlar bilan biror natijaga erishib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligida ilmiy asosda yondashish, tahlil va tadqiq etish muhim. Zo'rovonlik fermerlar, suvchiy ishchilar bilan subhatlashsangiz, bunga amin bo'lasiz. Boisi, ularning aksariyati g'allachilik va paxtachilik hamda boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarni yetishtirishda sinovdan o'tgan, unumli natija ko'rsatgan ish usullaridan foydalanishga e'tibor beriyapti.

Misol uchun, yerga qadalgan nav o'tgan yili samara bermadimi, bu yil darhol undan voz kechishga urinadi. To'g'ri-da, yil — o'n ikki oy ter to'kib mehnat qilsang-u, ximron ko'tarishda boshqarlardan ortda qolsang, bu kimga ham yoqardi?

E'tiborlisi, ularning har biri hisob-kitobli, yer bilan tillasha oladi, kerak bo'lsa, yer, klaster, kreditlar va subsidiyalar haqidagi qonunchilik yangiliklaridan boxabar.

Dastlabki yillari bu yerlardan olinadigan hosil cho'g'i kam edi. Paxtadan 22-25, bug'doydan 35-40 sentnerdan hosil olingan. Bugun sharoit butunlay o'zgaragan, — deydi "Yaxshi niyat 2019" fermer xo'jaligi rahbari

Yunusali Ergashev. — "Yerni boqsang, yer seni boqadi" degan maqol bejiz aytilmagan. Odamlarimiz har qarch yerdan unumli foydalanish harakatida. O'tgan yili har gektar paxtadan 40 sentner, g'alladan 60-70 sentner hosil oldik. Yer o'g'itga to'ysa, agrotexnik tadbirlar vaqtida o'tkazilsa, ekilgan nav yaxshi bo'lsa, bu ko'rsatkichlarni ikki barobar ko'tarish mumkin. Masalan, o'tgan yili har gektarni 200 kilogramm fosfor, 700 kilogramm azotli o'g'it bilan oziqlantirdik. Bunga sug'orish, chopiq, kimyoviy va mahalliy o'g'itlar, texnika xarajatlari, suv ta'minoti uchun ichki nasos xarajatlari, elektr energiyasi, soliq, suv solig'i, ishchilar ish haqi, xullas, barchasini hisoblab chiqilganda, paxtamiz tannarxi 8 million so'mdan oshdi. Ammo hosilni 6800 so'mdan sotdik. Natijada o'tgan mavsumda paxtachilikdan, umuman, daromad ko'rmadik. Bu yil "Bahodir Log'on tekstil" paxta-to'qimachilik klasteri bilan shartnoma imzoladik. Ayni kunda "Xitoy-78" urug'ini ekishga hozirlik ko'ryapmiz.

Bu borada yaxshi natijaga erishgan fermerlar tajribalari bilan tanishib chiqdik. Yangi nav yer, iqlim sharoitimizga mosligi, zararkunanda hasharotlarga chidamliligi, yuqori hosil va tola berish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ba'zi muammolar yo'q emas. Ekin maydonlarini sug'orishda nasosdan foydalanamiz. Nasosni ishlatishda elektr energiyasi uchun alohida, suvdan foydalangan uchun alohida pul sarflashga to'g'ri kelyapti. O'zimizning misolimda aytgan, elektr energiyasi uchun o'rtacha hisobda 50-60 million so'm sarflayman. Lekin shu kunga qadar belgilangan subsidiya to'lab berilgani yo'q. Bu hosil tannarxi oshishiga olib kelyapti. Buni mas'ullarimiz ko'rib chiqishi kerak. Shu o'rinda ba'zi takliflarni o'rtaga tashlamoqchiman. Paxta-g'alla yetishtiruvchi fermerlarga elektr energiyasi uchun mutlaq subsidiya ajratish, kimyoviy o'g'it va neft narxini o'rganish, soliq va suv solig'ini kamroq baholash, texnika ehtiyoj qism va xarajatlarni ko'rib chiqishga, maqsadga muvofiq bo'lardi. Fermerning gapida jon bor. Qishloq xo'jaligi texnikasi uchun kerakli ballonlar ta'minotchi korxonalarida erkin narxlarga nisbatan ikki-uch hissa qimmat. Shu bois, aksariyat fermerlar mahsulotni ichki bozordan, naqd pul shaklida sotib olishni maqbul bilmog'da.

Boshqa fermerlar bilan sulhatimiz ham shu kabi masalalar xususida bo'ldi. Jumladan, paxta hosili uchun yo'naltirilayotgan kreditni olishda 4 foizli bank sug'urtasi kerakmi o'zi degan fikrni aytdi ular. Ma'lum bo'lishicha, sug'urta summasi 22-25 sentner hosil uchun qo'yiladi, bu qiymadagi hosilni har qanday fermer yetishtira oladi. Ammo 400-500 million so'm kredit hisobidan 15-20 million so'm sug'urta pulini oldindan ushlab qolish fermerlar manfaatiga

mutlaqo zid. Shartga ko'nmasangiz, mablag' berishmaydi. Buning o'rimga mablag' kutilmagan ofat yoki zararkunanda hasharotlardan sug'urta qilishga yo'naltirilsa, yaxshi emasmi?

Paxta va g'alla klasterlari ko'paygani sog'lom raqobat va narxlar maqbulashishiga olib keladi, — deydi "Fayzli Oqtepa zari" fermer xo'jaligi rahbari Omatjon Hoshimov. — Bugungi fermer yig'ilishda zalni to'ldirish uchun o'tiradigan shaxs emas. Uning o'z rejasini, maqsad va qarashlari bor. Asosiysi, ekin yerlaridan unumli foydalanish, kam xarajat sarflagan holda mo'l va sifatli hosil yetishtirish. Bu bir qancha omil, imtiyozlarga bog'liq, albatta. Ekinga solinadigan mineral o'g'it, yonilg'i-moylash mahsulotlarini fermerlar to'g'ridan to'g'ri zavoddan olsa, yaxshi bo'lardi. Shuningdek, cho'l va sho'rlangan hududlarga mos navlarni yaratish ustida izlanishlarni ko'paytirish kerak. Bizga aksariyat hollarda bir xil navdagi urug'larni ketma-ket ekish tavsiya qilinmaydi, tanlab olish imkoniyati deyarli yo'q.

Tumandagi yetishtiriladigan paxta hosilini sotib olishga kirishgan "Bahodir Log'on tekstil" klasteri bosh agronomi Suhrobjon Sulaymonov bilan telefon orqali bog'landik. Uning aytishicha, bu yil fermerlarga sifatli o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari, urug'lik chigit, texnika va kimyoviy vositalarni arzon narxlarda yetkazib berish choralarini ko'rilmoqda. Shuningdek, hosilni qabul punktlariga tashish xarajatlarni ham klaster o'z zimmasiga olgan. Terim davrida quritish va tozalash uchun olinadigan yig'imdan voz kechildi. Bunday shartlar esa fermerlar uchun juda ma'qul kelyapti.

Ilgari paxta yig'im-terimi boshlangan paytda ham narx noaniqligicha qolavardir, — deydi tuman Fermerlar kengashi huquqshunosi Murodli Jo'rayev. — Endi yerga chigit qadamay turib, paxta xomashyosi narxi aniq bo'lyapti. Klaster fermerlar og'irini yangillatishga harakat qilyapti. Bu juda qvonarli. Lekin vazifamdan kelib chiqib, ba'zi mulohazalarimni ham aytib o'tishni o'rinni bilaman. Bir paytlar yetishtirilgan hosil qabul punktiga olib borilganda, u sifatiz, talabga javob bermaydi degan sabablar bilan to'lg'icha klaster korxonasi foydasiga o'tkazib yuborilgan. Chunki klaster va fermer o'rtasida tuzilgan shartnomada bu jihat ko'rsatib qo'yilgan. Ammo aksariyat fermerlar bundan bexabar. Oqibatda fermerlar yil oxiriga kelib, to'pshingan xomashyosi uchun pulni o'lmay, sarson bo'lgan. Endi bu masalalarda alohida e'tibor berilyapti. Fermer xo'jaliklari bilan shartnoma shartlariga e'tibor qaratish muhim bo'lgan masalalar yuzasidan tushuntirish, targ'ibot ishlari olib boryapmiz. Fermerlarga o'zlar uchun huquqshunos mutaxassislarni ishga jalb etish yuzasidan tavsiyalar beryapmiz.

Yer uyg'ongan, quyoshli onlar g'animat. Ko'klamda yo berilgan har kun kuzakda yilga tengligini yaxshi bilgan zo'rovonlik fermerlar dalasi tomon oshiqmoqda.

**Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri**

Tahlil va taqqos

# MADANIYAT VA MILLIY TARAQQIYOT



**Abduxalil MAVRULOV,**  
tarix fanlari doktori,  
professor

**Boshlanishi 1-betda**

Birinchisi, hamida axloqiy xislatlar bilan bezanmagan va o'z-o'zini tanimagan odamlar. Ikkinchisi, hamida axloqiy bezangan, ammo o'z-o'zini tanimagan odamlar. Uchinchisi, hamida axloqiy sifatlar bilan bezangan va o'z-o'zini tanigan odamlar.

Olimning nazariya ana shu keyingi — uchinchi toifa komil insonlardir. "Binobarin, insonning kamolotga erishishi hamida axloq va o'z-o'zini tanish bilan amalga oshadi".

Sharq mutafakkirlari, yuqorida qayd etganimiz kabi, madaniyatni ma'naviyat va tarbiya jarayoni bilan uyg'un o'rganadi. Forobiy Sharqda birinchi bo'lib din va falsafani haqiqatga yetishishning ikki mustaqil usuli deb bildi. U sog'lom ehtiyojni madaniyatga qiyoslaydi. Jumladan, bilim va ma'naviyatga ehtiyoj hayotda ro'y berayotgan voqea, hodisa va jarayonlar mohiyatini, obyektiv qonuniyatni tushunish bilan bog'liq ma'naviyatdir, deydi.

Abu Ali ibn Sino esa madaniyat, ma'naviyatni ilm-bilim bilan bog'lab o'rganadi. Uning qayd etishicha, ilmlar ikkiga — amaliy va nazariyaga bo'linadi.

Nazariy bilimlar, uning fikricha, insoniyat kelajagiga daxldor maqsadlarga erishish uchun yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Shuningdek, nazariy ilmlar u dunyoda baxtiyor bo'lishdan ham xabardor qiladi.

Amaliy ilmlar esa bizni o'z xatti-harakatimizdan xabardor qiladi. Uning foydasi shuki, ushbu dunyodagi ishlarimizni yo'lga solish uchun nimalar qilishimiz lozimligini o'rgatadi.

Amaliy ilmlarning o'zini Abu Ali ibn Sino yana uchga bo'ladi: birinchisi, mamlakatni idora qilish, ikkinchisi, uyni idora qilish, uchinchisi, o'z-o'zini idora qilish.

Olimlar H.Boboyev va Z.G'ofurovning ta'kidlashicha, Abu Rayhon Beruniy ilm olishni o'z hayotining lazzati deb bildi. Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularning ilgama talabini keltirib chiqaradi. Mutafakkirning fikricha, madaniyatning uchta mustahkam ildizi bor. Bularning birinchisi — rostlik, ikkinchisi — odillik, uchinchisi — adolat.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy esa borliqning ko'rki, go'zal va obodligi inson tufaylidir, deydi. Uning qayd etishicha, butun olamni yaratishdan maqsad inson bo'lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo'qdir. Inson ko'ngli turli bilimlar xazinasi qildi va bu tilim ichida tangri o'zini yashirdi. Insonning ajabiy jismi bir maxfiy sir xazinasi o'laroq, o'zida ana shu ganj tilimni saqlaydi. Bu tilim son bo'lib, u o'sha xazinada tarqadi va unga posbonlik qiladi. Shuning uchun ham inson boshqa narsalardan mumtoz qilib yaratilgan.

Buyuk mutafakkir olimlarning ta'limotidan shuncha ko'p iqtibos keltirishimizning boisi shundaki, ayrim olimlar Markaziy Osiyoda madaniyat fenomenini ilmiy jihatdan ishlab chiqilmagan, uning mohiyati ochib berilmagan, mazkur fenomen hodisani ta'rifi berilmagan deb iddao qiladi. Ammo yuqoridagi qisqacha ma'lumotlarning o'zi yurtimizda madaniyatning eng muhim, mukammal belgilari, zamonaviy tilda aytganda, madaniyatning funksiyalari yaratib bo'linganidan darak beradi.

G'arb madaniyatini aslo kamsitmaganda hamda insonlarning bilim darajasi ushbu hodisaniq rasional mag'zi sifatida e'tirof etiladi. Sharqda esa madaniyat tushunchasining mohiyati juda chuqur, faoliyat ko'lami o'ta keng, bajarishi lozim bo'lgan vazifalar doirasi inson ongli faoliyatining deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi. Shu ma'noda, Sharq madaniyati konsepsiyasi bugungi dunyoda insoniyatni kundan kun ortib borayotgan turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar, insonning kamolotga yetishiga to'siq bo'layotgan behisob zararli oqimlar, soxta, g'arazli g'oyalari, kurrai zamanning barqaror va mustahkam rivojlanishiga qarshi turgan turli xavf-xatarlardan saqlab qolishning insonchil vositasi sifatida tan olinmoqda. Boshqacha aytganda, madaniyat, uning ta'sir kuchi endi mamlakatlar va millatlar

taqdirda muhim o'rin egallaydigan fenomen hodisaga aylanib bo'ldi.

Shu ma'noda, yangi O'zbekiston sharoitida milliy madaniyatni rivojlantirish, uning jamiyat a'zolari ongi, tafakkuriga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga qaratilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlash lozim. Bu borada, ayniqsa, 2021-yil 20-yanvarda qabul qilingan "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun mamlakat va jamiyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lishini qayd etish lozim. Mazkur huquqiy hujjatda madaniy faoliyat sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida ma'naviy, axloqiy, madaniy qadriyatlar ustuvorligi, ijodiy faoliyatning erkinligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilish, madaniyatning xilma-xilligi, madaniyatlararo munosabatlarda teng huquqlilik, madaniy faoliyat sohasidagi ta'lim-tarbiyaning tizimliliigi, ilmiylik va uzluksizligi kabi muhim tamoyillar qabul qilingani yangi O'zbekiston madaniyatining ijtimoiy ahamiyati ortib borayotganidan darak beradi.

Ma'lumki, madaniyat nazariyasi va tarixini o'rganish masalasida muayyan yutuqlarga ega bo'lsak-da, hali ham ayrim masalalarda sovet davridan qolgan "yaramas meros" ilmiy tadqiqotlar natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bu jihat, asosan, madaniyat kabi murakkab fenomen hodisaniq nazariy va tarixiy jabhalarini tadqiq etish va ayniqsa, sohaning funksional vazifalari masalasiga tegishli. Davlatimiz rahbari mazkur masalaga alohida e'tibor berib, "Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega", deganida haq edi.

Fanlarning rivojlanishi, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, madaniyat ilmidagi eng muhim masala tadqiqotning to'g'ri usulini topa bilish, tarixiy jarayonlarni o'rganishdagi eng maqbul yo'lni tanlashdir. Shunisi ma'lumki, tarixiy jarayonlarni, jumladan, madaniyat tarixi va nazariyasini o'rganishda hozirgacha ikkita bir-birini inkor etuvchi yondashuv mavjud. Ularning birinchisi sivilizatsiyaviy, ikkinchisi formatsiyaviy yondashuvdir.

Tarixiy jarayonlarni formatsiyaviy yondashuv asosida o'rganish sobiq ittifoq va sotsialistik davlatlarda keng amal qildi. Bunday yondashuvga asosan, jamiyatni rivojlantirishning

tadqiq etish esa tarixni soxtalashtirishga, juda ko'plab tarixiy-madaniy jarayonlarning noxilosi o'rganilishiga olib keldi. O'zbek milliy madaniyati "saroy madaniyati" va keng xalq ommasining madaniyati sifatida ikkiga bo'lib qo'yilishi, "O'rta Osiyo xalqlari savodsiz, qoloq xalq" degan soxta g'oyaning, "proletar madaniyati", "sovet madaniyati", "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik, ruhan baynalmilal



madaniyat" kabi atamalarining paydo bo'lishiga sabab hozir biz o'rganagan tarixiy jarayonlar, shuningdek, madaniy jarayonlarni o'rganishda formatsiyaviy yondashuv oqibatidir.

Tarixiy jarayonlarni, jumladan, madaniyat tarixini o'rganishda formatsiyaviy yondashuvga zid turadigan hodisa mazkur jarayonlarni tadqiq etishdagi sivilizatsiyaviy yondashuv hisoblanadi. Qator asarlarda ushbu yondashuv XVIII asrda G'arbda paydo bo'lgani qayd etiladi.

Biroq tarixiy jarayonlarni sivilizatsiyaviy yondashuv asosida o'rganishning dastlabki qarashlari ensiklopedik olim, mutafakkir, tarixchi, faylasuf, davlat va jamoat arbobi Ibn Xaldun tomonidan ishlab chiqilgan.

Ibn Xaldun "Muqaddima" asarida ayrim tarixchilar tomonidan tarixiy ma'lumotlarning

etishi, sivilizatsiyalar yaxlit tizim sifatida bir-biri bilan taqqoslanishi mumkinligidan iborat. Bu esa tarixiy qiyoslash usulini tarixiy tadqiqotlar, shuningdek, madaniy jarayonlarni o'rganishda qo'llashni taqozo etadi.

Olimlar S.Shadmanova va M.Yuldashev ta'kidicha, ushbu konsepsiya sivilizatsiyalar rivojlanishidagi muayyan omillarni aniqlashda tadqiqotchilarga u yoki bu mamlakatning,

anglatadigan tushunchadir. Madaniyatning ushbu funksiyasi muhim vazifalardan birini bajaradi. Ijtimoiylashuv ibtidoiy odamni ijtimoiy sivilizatsiyaning faol a'zosiqa aylantiradi. Shunisi ma'lumki, insonni jamiyat tarbiyalaydi, shakllantiradi. Buning natijasida odamlar ijtimoiy jamiyatning ichida o'zining "men"ini topishga harakat qiladi. Jamiyatda ijtimoiylashuv deganda, odamlarning bir xil fikrlashi, bir xil hayot tarzini shakllantirish tushunilmaydi. Inson har qanday sharoitda ham o'zining individual qiyofasini saqlab qolishga madaniyatning ushbu funksiyasi yordam beradi.

Madaniyat ijtimoiylashuv funksiyasining dolzarbligini ko'rsatib turadigan ikki sababga e'tibor berish kerak. Birinchisi, "Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyilining konstitutsiyaviy maqomga egaligi. Ikkinchisi, bugungi dunyoning haddan tashqari globallashuvi natijasida odamlar ijtimoiy ongini zaharlovchi omillar, eng avvalo, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri oqibatida yoshlarimiz katta qismining virtual olamga kirib ketishi.

Ijtimoiylashmagan jamiyatda jamoaviylik ruhiyati o'rta miga individualistik qarashlar, samimiylk, mehribonlik fazilatlarini o'rta miga qo'llab, dag'allik, agressivlik sifatlarini shakllanadi. Bunday jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish mumkin emas. Ijtimoiylashmagan shaxsda esa tafakkur o'ziga, nosog'lom ma'naviy ehtiyoj, hayotga yengil munosabatlarda bo'lish, iste'molchilik kayfiyati, "olomon" odam sifatlarini ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, madaniyatning ijtimoiylashuv funksiyasi bugun o'ta zarur hodisaga aylandi.

Madaniyat funksiyalari orasida tarbiyalovchilik funksiyasi ham bugun juda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib turibdi. Xo'sh, tarbiya nima? Tarbiya muayyan xalqning ming yillar davomida shakllangan, ijtimoiy tajriba natijasida sayqallangan, avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy-siyosiy va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida shaxs ma'naviy dunyosini shakllantirish jarayonini anglatuvchi tushunchadir.

Biz bugun juda ko'p narsani biladigandekmiz, hamma narsaga aqlimiz yetadigandek. Biroq bilganlarimizning hammasi ham yordam beravermas ekan. Jadid bobomiz Abdulla Avloniy bunday deydi: "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ilmi dars orasida farq bor dedik, chunki dars oluvchi — biluvchi, tarbiya oluvchi — amal qiluvchi demakdir".

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bugungi sharoitda yoshlarga shunday tarbiya berish lozimki, ular o'z ota-bobolariga, milliy tarixi, ona tili, millat ulug'lariga, muqaddas islom an'analarga sodiq qolsin. Kitoblardan o'rganilgan ma'rifiy ilm qatorida oila olgan hayot ilmi ham ularga suv va havodek zarur. Ilmi, odobli, farosatli odam hayotda o'rinni topib oladi. Shuning uchun ham keyingi yillarda mamlakatda madaniyatning tarbiyalovchilik funksiyasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Madaniyat va san'atning tarbiyalovchilik roli Prezident farmonlari, qarorlarida ustuvor o'rinda ega bo'lmoqda.

Shaxs kamoloti, nazarimizda, uchta fenomen hodisaniq o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Birinchisi tarbiya, ikkinchisi aql, uchinchisi tafakkur masalasidir. Ularning o'zaro hamjihatligi jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtiruvchi omildir.

Shu o'rinda shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf funday deydi: "Inson zoti aql bilan boshqa jonzorlardan ustun turadi. Inson o'ziga berilgan aql vositasida inson yetishi mumkin bo'lgan eng yuqori martabalariga erishadi. Ammo aql o'z-o'zidan ishlab ketavermaydi. Aqlni harakatga soluvchi ham o'z-garmaydigan funksional vazifalari bor. Masalan, madaniyatning axborot tarqatish, masulankatuv, aksiologik, bilish, normativlik kabi funksiyalari, nazarimizda, o'z-garmas mazmunga ega. Ular jamiyat va inson taraqqiyotida doimo o'ziga xos vazifalarni har qanday zamon va makonda bajarishi lozim.

Ayni paytda zamonning shiddat bilan rivojlanib borishi, global muammolar mazkur masalaga yong'acha munosabatda bo'lishni ham talab etmoqda. Shu ma'noda, fikrimizcha, bugun yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat funksiyalarini o'rganishda shaxs, jamiyat, davlat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan, mazmunan yangi funksiyalar haqida ham gapirish vaqtli kelib do'iraylmiz.

Fikrimizcha, yangi O'zbekistonda barpo etish jarayonida madaniyatning eng muhim funksiyalaridan biri mazkur fenomen hodisaniq ijtimoiylashuv funksiyasidir. Umuman, ijtimoiylashuv biror-bir voqea-hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko'pchilikka daxldor bo'lib, ijtimoiy munosabatlarga mujassamiga aylanib borishini



"ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya" kategoriyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, jamiyatning moddiy hayoti — birlamchi, ijtimoiy fikr — ikkilamchi. "Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya"lar konsepsiyasiga ko'ra, insoniyat tarixi ibtidoiy, quldorlik, feodal, kapitalistik va kommunistik jamiyatlardan iborat.

Mazkur konsepsiyaning eng katta xatarlaridan biri, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning almashinuvi yangi ishlab chiqarish kuchlari va eski ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi. Bir formatsiyadan boshqasiga o'tish ziddiyatlarini hal qiluvchi ijtimoiy inqilob orqali amalga oshiriladi.

Formatsion yondashuv nazariyasi markazida inqilob va sinfiy kurash turadi. Tarixning asosiy harakatlanuvchi kuchi sinfiy kurash deyiladi. Bu esa sovet davrida "sotsializm rivojlangani sari sinfiy kurash kuchayib boradi" degan g'oyaning vujudga kelishiga nazariy asos bo'ldi. O'zbekistonda sodir bo'lgan qatag'onlarning sababi ham shundan iborat deyish mumkin.

Tarixiy jarayonlarni, jumladan, madaniyat nazariyasi va tarixini o'rganishdagi formatsiyaviy yondashuvning muhim kamchiliklaridan biri har qanday tarixiy voqealarni ishlab chiqarish usuli, iqtisodiy munosabatlari tizimiga bog'lab qo'yishdir. Tarixning asosiy tuzibekti bo'lgan insonga ikkinchi darajali o'rin beriladi. Tarixiy jarayonlarda shaxs mohiyati va ma'naviy omilning ahamiyati atayin tushirib ko'rsatiladi. Ziddiyatli munosabatlardan, shuningdek, zo'ravonlikning roli oshiriladi.

guruchini kurmakdan ajratmasdan, barcha ma'lumotlarni, hatto to'qima xabarlar, tuhatmat va bo'htonlarning ham to'g'ridan to'g'ri naql etilishini taqdid qiladi. Shuning uchun ham oldin insonlarni tafakkur qilishga chaqirib, yolg'on xabarlariga ishonmaslik uchun nimalarga e'tibor aniqlik kerakligini tushuntiradi.

Alloma yaratgan eng katta ilmiy yangilik sivilizatsiya masalasi bilan bog'liq. U tarix, sivilizatsiya va insoniylik jamiyatini uyg'un ko'radi. Mutafakkirning qayd etishicha, xabarlardagi haqiqatni yolg'ondan ajratish uchun asos bo'ladigan qoida insoniylik jamiyatini, ya'ni sivilizatsiyani ko'zdan kechirish va shu tabiatga ko'ra mavjud holatlar va uning taqozosi hisoblangan ishlarini, shuningdek, uning hisoblanmaydigan va vujudga kelishi imkonisiz holatlarini bir-biridan ajratishdan iborat. Shunday qilsak, xabarlardagi haqiqat va yolg'onni qat'iy ravishda ajratish uchun aniq mezoniga ega bo'lamiz.

Mazkur konsepsiya keyinchalik M.Veber, A.Toynbi, O.Shpingler va boshqalar tomonidan yanada rivojlantirildi. Tarixiy jarayonlarni, shuningdek, madaniyat kabi murakkab hodisani o'rganishdagi sivilizatsiyaviy yondashuv masalalarini hal etishda haqqoniylik, adolat, sodir bo'lgan voqea-hodisalarga baho berishda makom va zamonning o'ziga xosligini e'tiborga olib holda munosabatda bo'lishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning muhim jihatlari uning har qanday davlat yoki davlatlar guruhiga qo'llash mumkinligidan iborat bo'lgan universalligi, tarixi ko'p chiziqlilik, jarayonlarni ko'p ravonlilikdek anglashda yordam berishi, insoniyat tarixining birliigi, yaxlitligini inkor etmasdan, balki uni taqozo

Ijtimoiy safarbarlik barcha fuqarolar o'z millati va mamlakati taqdiri uchun mas'ul ekanini ongli ravishda tushunib, o'zidagi barcha imkoniyatlar, bilim, tajriba, malakalarni yagona maqsad yo'lida jamlay olish, ularni ezuq maqsadlarga erishish sari safarbar etish ko'nikmasidir.

Ayni paytda jamiyatda ijtimoiy safarbarlikni amalga oshirish uchun har bir fuqaro o'zida ehtiyoj sezishi lozim. Biroq bu ehtiyoj, albatta, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan ijtimoiy ehtiyojga hamohang bo'lishi kerak. Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy safarbarlikka erishishning eng muhim omillaridan yana biri davlatning o'zi shu safarbarlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi, bunday harakatni rag'batlantirishdir.

Madaniyatning ijtimoiy safarbarlik funksiyasi, nazarimizda, odamlarni hayotni sevish va undan zavq olishga, qiyinchiliklarga qarshi kurashish va ularni yengish uchun ma'naviy-madaniy kuch-quvvat kerak ekanini sezdirishga, arziri bir ishini poyoniga yetkazish maqsadida og'ir mehnat qilish uchun sabr-toqatli bo'lishga undashi lozim.

Shuningdek, o'zini boshqalarga yordam berishga safarbar etishni bilishga, oldinda turgan og'ir va mashaqqatli mehnat qarshisidagi hadik va qo'rquvni yengib o'ta olish tajribasiga ega bo'lishga, o'z oldiga ayni maqsadni qo'ya bilish, uni amalga oshirish uchun esa katta tajribaga ega bo'lish, tinmasdan harakat qilish, h'ma egallagan soha bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarini muttasil ravishda oshirib borishga undashi zarur.

Ijtimoiy safarbarlik holati, avvalo, mardlik, shijoat, g'ayrat, hushyorlik, tejankorlik, o'ylab ish qilish, insof, saxovat, katarlik, rahm-shafqat kabi sifatlar yig'indisi bo'lib shakllanishi mumkin. Mazkur holatning yuzaga kelishiga ziyon yetkazadigan shunday salbiy sifatlar ham borki, ularning ba'zilari, fikrimizcha, yalqovlik, shoshaloqlik, baxillik, g'araz, ta'magirlk, minnat, har bir ishini paysalga solish, aniq reja tuzish amaliyoti yo'qligi, hafsalasizlik va boshqalardan iborat.

Madaniyatning ijtimoiy safarbarlik funksiyasi bugun ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga kirib ketishi, natijada jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonining buzilishi, fuqarolarda individualistik dunyoqarashning kuchayib borayotgan bir paytda o'ta muhim o'rinda ega deb bilamiz.

Madaniyat funksiyalari haqida fikrlashish asnosida yana bir muhim masala ustida to'xtalishga to'g'ri keladi. Gap yoshlarimiz orasida tobora avj olib borayotgan iste'molchilik kayfiyati xususida ketmoqda. Iste'molchilik inson hayot tarzining eng ustuvor jihati ekanini e'tirof etsak-da, iste'mol qilingan narsaning o'rinni qoplash uchun ularni yaratish kerakligini unutmashlik lozim. Ham moddiyatda, ham ma'naviy-madaniy hayotda iste'molchilik kayfiyatini yaratuvchanlik kayfiyatiga aylantirish ekanimiz, jamiyat taraqqiyotiga erishish qiyinlashib boraveradi.

Ayniqsa, madaniyat sohasida iste'molchilikdan yaratuvchanlik kayfiyatiga o'tish juda muhim. Chunki yangi asarlar yaratilmas, yangi-yangi Alisher Navoiylar, Xorazmiylar, Beruniylar, Farg'oniyalar yetishib chiqmas ekan, madaniyatimizning vorisiyiligi haqida gapirishning o'zi befoyda.

Shu ma'noda, fikrimizcha, bugungi yangi O'zbekiston madaniyatini uchun yaratuvchanlik funksiyasi o'ta zarur. Nosog'lom iste'molchilikdan sog'lom yaratuvchanlik kayfiyatiga o'tish juda kerak. Mamlakat rahbari tomonidan bu borada barcha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularning bari iqtidorli yoshlarimizni yetishtirish, mavjud milliy-madaniy boyliklarimizni yanada ko'paytirishga safarbar etilishi lozim.

Biz bugun barpo etmoqchi bo'lgan yangi O'zbekiston va Uchinchi Renaissance, mamlakat rahbari aytgani kabi, real imkoniyatlarga ega. Ana shu imkoniyatlar orasida mamlakat va millat taqdirda muhim o'rinda ega bo'lgan madaniyatning o'rini alohida qayd etish kerak. Chuqur e'tiqodim va hayotiy tajribam asosida aytishim mumkiniki, bugun madaniyat jamiyat hayotidagi ham iqtisodiy-ijtimoiy, ham siyosiy-mafkuraviy muammolarni hal etishda qudratli kuchga aylandi. Shu ma'noda, mamlakatimiz rahbarining "Farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg'ularini kuchaytirishda ma'naviy-ma'rifiy sohalar vakillari, madaniyat va san'at namoyandalari hamda ijod ahlining o'rni va ta'siri beqiyosdir", degan fikrlarida katta haqiqat bor.

# MARKAZIY OSIYO RUHI

## ASL VAZIFA ADOLAT MEZONI ILA AHILLIKNI TARANNUM ETISH

**Bahor nihoyatda qut-barakali keldi. Bu odamlar kayfiyati, ruhiyatida ham sezilyapti. Navro'z ayyomi muqaddas Ramazon oyiga hamohang, har qachongidan ulug'vorlik kasb etdi. Davlatimiz rahbarining bayram munosabati bilan yo'llagan tabrigi esa bu qutlug' ayyomning qiymati, mohiyatini yanada oshirdi. Zero, unda Navro'z barcha elu elatlarni, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarini yanada jipslashtirayotgani alohida ta'kidlandi.**



Jipslikni yanada mustahkamlashda mintaqadagi ziyolilar, ilmfan, madaniyat, san'at va adabiyot namoyandalarining hisssasi katta ekani aytiladi. "Sizlar noyob iste'dodingiz, aql-tafakkuringiz bilan azaliy qardoshligimizni, mustarak qadriyat va urf-odatlarimizni, ezgu intilishlarimizni tarannum etadigan asarlar yaratib, yoshlarimizni ayni shu ruhda tarbiyalashga hissa qo'shsangiz, xalqlarimiz sizlardan albatta minnatdor bo'ladi", degan jumlar ziyorlarga ilhom bag'ishlab, g'ayrat ulashganiga shubha yo'q. Yangi O'zbekistondagi bunday islohotlar sabab

nafaqat yurtimiz, balki Markaziy Osiyo ziyolilarini ham xalqlarimiz manfaati yo'lida birlashtirmoqda.

Buni qo'shni davlatlardagi do'stlarimizning ayni fikrlardan minnatdorlik, iliq munosabatlaridan ham sezish mumkin. Ular O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston yetakchilarining qadimiylar Xojand shahrida o'tadigan uch tomonlama uchrashuvi do'stlik va birodarlik siyosatining yangi uflarini kashf etishiga ishonch bilan qaramoqda.

## NAVRO'Z — MUSHTARAK ILDIZLARGA EGA QARDOSHLIGIMIZ TIMSOLI

— Tojikiston va O'zbekistonni do'stlik rishtalari bog'lab turadi degan fikr bilan cheklanish aloqalarimiz haqida hech narsa demaslik bilan barobar. Chunki tojik va o'zbek xalqlari asrlar davomida juda ko'p sinovlarni birga yengib, yashab kelayotgan abadiy birodarlardir. Xalqlarimiz doim qo'liga berib, bir-birini qo'llab-quvvatlab yashagan. Milliy xarakteri, tafakkuri, turmush tarzi, urf-odatlari va an'analari jihatidan tojik va o'zbeklar mustarak va ayro qilib bo'lmas xalqlardir. Bu boshqa millatlar o'rtasida juda kam uchraydigan hodisa.

**Akbar ABDULLO**  
(Ali Akbar Abdulloyev),  
shoir, Tojikiston va O'zbekiston  
Yozuvchilar uyushmalari a'zosi:

O'rta asrlarning buyuk mutafakkirlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, biz — avlodlarga do'stlik, birodarlik va o'zaro hurmatning yuksak namunasini meros qoldirgan. Keyinchalik bu ezgu an'anani yangi davrning tanliq shaxslari — Sharof Rashidov va Bobojon G'afurov, G'afur G'ulom va Mirzo Tursunzoda, Abdulla Oripov va Boqi Rahimzoda hamda boshqa ko'plab ijodkorlar, ziyolilar, davlat va jamoat arboblari davom ettirdi. Tojikiston xalq shoiri Boqi Rahimzoda o'zbek adabiyotining ko'plab vakillari bilan do'stlik rishtasini bog'lagan. Ular bilan bugun ham haqli ravishda faxrlanamiz.

Bugun biz, azaliy do'stlar respublikalarimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida kechayotgan jarayonlarni yaqindan va katta qiziqish bilan kuzatib boramiz. Bu boradagi muvaffaqiyat va yangiliklardan quvonamiz. Yaqinda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Navro'z bayramiga bag'ishlangan tabrik so'zini diqqat bilan tingladim. Ta'kidlash joiz, ushbu ma'ruzada ham mamlakatdagi, ham Markaziy Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat chuqur tahlil qilindi.

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida zamonamizning uzoqni ko'ra biluvchi siyosatchisi sifatida mamlakatimiz fuqarolarining sha'ni va qadr-qimmatini har qanday tajovuzdan himoya qilish, shuningdek, vatandoshlarning kundan kunga ortib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirish O'zbekiston rahbariyatining asosiy maqsadi ekanini ta'kidladi. Ayni paytda davlatimiz rahbari global vazifalarni qo'shni va boshqa xorijiy davlatlar bilan faqat tinchlik, yuksak diplomatik hamkorlik orqali amalga oshirish mumkin ekanini aytdi.

Ikki davlat rahbarlarining xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, tinch-totuv yashashini ta'minlash siyosatini hayotga tatbiq etishda ijodkor ziyolilar muhim o'rin tutadi. Bu ezgu ishda shoirlar, yozuvchilar va boshqa san'at namoyandalarining alohida o'rni bor.

Tojikiston va O'zbekiston adiblari o'z saflarining tarixiy an'analarni davom ettirib, boyitib, yaqin hamkorlikda qardosh xalqlarimiz farovonligi yo'lida maqsadli ijodiy faoliyat yuritmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston



va Tojikiston Yozuvchilari uyushmalari o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga chiqdi. Faol aloqalar kirishdik. Respublikalarimiz o'rtasidagi diplomatik aloqalar qardosh mamlakat adiblarining ijodiy faoliyatida ham



o'z aksini topmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatlarimiz Yozuvchilar uyushmalari tashabbusi bilan qo'shma adabiy anjumanlar, forumlar va boshqa ijodiy tadbirlar tizimli ravishda o'tkazib kelimoqda. Bunday tadbirlar ikki qardosh xalq o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugun tojikistonlik 15 dan ortiq ijodkor O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'ziligiga, shuningdek, o'zbekistonlik adiblar Tojikiston Yozuvchilar uyushmasi a'ziligiga qabul qilindi. Bunday do'stona munosabat bizda men ham

inobatga olinib, Tojikiston Prezidenti farmoni bilan o'zbekistonlik qator san'atkorlarga Tojikiston xalq artisti, tojikistonlik san'atkorlarga O'zbekiston Prezidenti farmoni bilan O'zbekiston xalq artisti yuksak unvonlari berildi.

Qadimiylar bayramimiz Navro'z BMT tomonidan xalqaro bayram sifatida e'tirof etilgani bizni quvontiradi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida Navro'z har yili tantanali nishonlanmoqda. Bu xalqlarimizning mustarak tarixiy madaniyati va qardoshlik timsolidir.

2023-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Odil Ikrom tojik-fors klassik shoiri Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarini o'zbek tiliga tarjima qilgani uchun Abu Abdullo Rudakiy nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. 2024-yilda O'zbekiston va Tojikiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Abdujabbor Mo'minov 50 dan ortiq tojik yozuvchisining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, nashrga tayyorladi. Shu tariqa o'zbek xalqi zamonaviy va klassik tojik adabiyoti bilan yaqindan tanishmoqda.

Shu yilning 13-14-fevral kunlari Samarqand shahrida zamonaviy tojik adabiyoti asoschisi Sadrididdin Ayniy ijodiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlardan adiblar ishtirok etdi.

Mamlakatlarimiz rahbarlari ko'rsatmasi bilan xalqlarimiz madaniyati, san'ati va adabiyoti kunlarini muntazam o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bu xalqlarimizning o'zligini teran anglab, ko'ngil yaqinligini yuksak darajaga olib chiqmoqda.

Bu kabi qo'shma tadbirlarda san'at namoyandalari ham faol. Ularning fidoyiligi

## O'ZBEK ADABIYOTIGA E'TIBOR BERILISHI BIZNI HAM QUVONTIRADI

**Didar QULKENOV,**  
"Tan-Sholpan" adabiy jurnali  
bosh direktori — tahririyat  
kengashi raisi:



— Qozog'iston va O'zbekistonning strategik sheriklik, itifoqchilik asosidagi munosabatlari yuksalib bormoqda. Ayniqsa, hozirgiday global siyosiy jarayonlar murakkab tus olgan vaqtda bunday qo'shni munosabatlari juda muhim. Nazarimda, tashqi siyosatda faqat iqtisodiy hamkorlikning o'zi yetarli emas. Balki adabiyot, til, urf-odat va umumiy tarixni chuqur o'rganish orqali juda katta natijalarga erishish mumkin. Quvonarlisi, keyingi yillarda birodar davlatlarning yaqinlashuvi jadallashdi. Bu Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi itifoqchilik munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Biz, qo'shni qardosh xalqlar mustabid tuzum davrida bir-birimizdan uzoqlashdik. Bir-birimizga yot qarash shakllantirildi. Mustaqillikdan so'ng vaziyat o'zgardi. Keyingi yillarda do'stona munosabatlar yangi bosqichga chiqdi. Buni madaniy aloqalarimiz bugungi qiyofasi ham isbotlaydi. Har ikki mamlakatda

madaniyat kunlari tashkil etilmoqda. Turli adabiy tadbirlarni hamkorlikda, uyushqoqlik bilan o'tkazayotganimiz buning amaldagi isboti.

Teleradio, bosma nashrlarda ham qardosh xalqlar madaniyati, qadriyatlarini targ'ib qilishga keng yo'l ochib berildi. O'zbekistonda qozoq tilidagi, Qozog'istonda o'zbek tilidagi ko'rsatuv va eshittirishlar, gazeta va jurnallar do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilaypti. Jumladan, "Tan-Sholpan" ("Tong yulduzi") adabiy-badiiy jurnali birodar xalqlar adabiyotini qozoq o'quvchilariga taqdim etib

## YAGONA O'TMISH, UMUMIY MEROS — BOQIY IFTIXOR



**Begjon AHMEDOV,**  
Qirg'iz Respublikasida xizmat  
ko'rsatgan madaniyat arbobi,  
Qirg'iziston, O'zbekiston  
va Ozarbayjon Yozuvchilar  
uyushmalari a'zosi:

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Navro'z bayrami munosabati bilan yo'llagan samimiy va ilhomبخsh tabrigida adabiyot, ijod ahlini, ziyolilarni ruhlantiruvchi samimiy fikrlar bildirdi. Mintaqada birodarlik, azaliy do'stlikni mustahkamlashga chorlov o'laroq aytilgan bu fikrlar nafaqat o'zbek ziyolilariga, balki butun Markaziy Osiyo madaniy arboblarga, ma'naviyat posbonlariga yuksak ishonch va mas'uliyat yukladi.

O'zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo davlatlarini yaqinlashtirishga qaratilgan siyosati nafaqat xalq diplomatiyasi, balki mintaqa yetakchilari o'rtasidagi hamkorlik strategiyasining mazmunini belgilab bermoqda. Mazkur g'oya Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa qo'shni davlatlar rahbarlari tomonidan ham chin qalbdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu, o'z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bu jarayonda ziyolilar — ijodkorlar, olimlar, mutafakkirlar, jurnalistlar, teatr va kino arboblari eng muhim ma'naviy ko'priklari

vazifasini bajarmoqda. Ular xalqlar o'rtasidagi umumiy ildizlarni, qardoshlikni, tarixiy mustaraklikni va kelajakning birligini targ'ib etadigan, davrning fikrlash paradigmasini shakllantiruvchi, yetkazuvchilardir.

Davlat mustaqilligining ilk o'n yilliklarida mintaqadagi ba'zi ziyolilar o'z xalqining boshqa qo'shni xalqlardan ustun jihatlarni sanash, shu g'oyani boshqalarga yetkazish bilan mashg'ul bo'ldi. Bu tarqoqlik, xalqlarni bir-biridan uzoqlashtiradigan noto'g'ri yo'nalish edi. Aslida, umumiy vazifa mutlaq boshqa: tarixiy haqiqat va madaniy adolat mezonini asosida ahillikni — umumiy tarix, umumiy madaniyat, umumiy taqdim tarannum etishdir.

Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ayko'l Manas, al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Jomiy, Muxtomquli, Bobur Mirzo, Rudakiy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Bolasog'un va yana ko'plab buyuk zodlar barchamiz uchun umumiy meros, umumiy iftixordir. Ularga faqat bir millat yoki bir davlat doirasida qarash bu buyuk shaxslarning haqiqiy mohiyatini cheklashdir. Sharq Renessansining ilk va ikkinchi to'liq aynan Markaziy Osiyo zaminida yuzaga kelgani bugun bizdan umumiy merosni teng ulug'lashni, faxrlanishni va birgalikda targ'ib qilishni, ajdoddan o'rnak olishni talab etadi. Shu ma'noda, tobora yangi bosqichga o'tib borayotgan o'zbek-qirg'iz adabiy hamkorligiga xayrixohlik kun sayin ortyapti. Ikki davlat ziyolilari va ijodkorlari ishtirokidagi ma'rifiy tadbirlar tez-tez tashkil etilayotgan maqsadga muvofiq.

2019-yilda Toshkentda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Qirg'iziston Milliy Yozuvchilar uyushmasi o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumini ikki tomonlama adabiy aloqalar rivojiga xizmat qilaypti. Chingiz Aytmatov, To'lagan Qosimbekov, Mar Boyjiyev, Murza G'aparov singari iqtidorli qirg'iz yozuvchilari asarlari o'zbek do'stlarimiz tomonidan sevib o'qilgani ham ruhiyatimiz, qarashlarimiz yaqinligi belgisi. O'tgan 2024-yilda atqoli yozuvchi, davlat va jamoat, madaniyat arbobi, mohir diplomat Sulton Rayevning "Tanlangan asarlar"i

kelmoqda. Jurnalda turkiy xalqlar adabiyoti "Birodarlar adabiyoti" ruknida chop etiladi. O'zbek adabiyoti ham shular qatorida. Masalan, 2021-yilda o'zbek yozuvchisi Said Ahmadning hikoyalari chop etildi. Shu loyiha davom ettirilib, 2023-yil jurnalimizda "O'zbek adabiyoti yili" deb e'lon qilindi. O'tgan yili Xurshid Do'stmuhammad, Halima Ahmad, Eshqobil Shukur, Zulfiya Qurolboy qizi, Nabi Jaloliddin, Rustam Musurmon kabi 30 dan ortiq o'zbek adibining asarlari nashrdan chiqdi. Shu tariqa o'zbek adabiyotining 34 nafar vakili qozoq o'quvchilariga tanishtirildi. Jurnal muqovasida o'zbekona milliy naqshlar aks ettirildi. Ana shu hamkorlik jarayonida O'zbekistonda adabiyotga davlat tomonidan katta e'tibor qaratilayotganini aniq sezdik. Bundan yaqin do'st va qardosh sifatida haqli ravishda quvondik.

Kelgusida "Tan-Sholpan" jurnali o'zbek adabiyotidan kamida 52 yozuvchining asarlarini qozoq tiliga tarjima qilib, kitob shaklida nashr etishni rejalashtirmoqda. Ushbu kitoblarning illyustratsiyalarini o'zbek rassomlari tayyorlayotgani bizni behad xursand qiladi. Zero, bu o'zbek va qozoq adabiy aloqalarini mustahkamlashga qo'shilgan katta hissa bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Navro'z munosabati bilan yo'llagan tabrigidan biz kabi ijodkorlarni ruhlantiruvchi iliq so'zlar, do'stona takliflar o'rini olgani ham beg'araz do'stlikdalat. Biz O'zbekiston Prezidentining birlamlikka, yaqin do'stlikka chorlovchi takliflarini mamnuviyat bilan qo'llab-quvvatlaymiz. Bu chaqiriq bizga kuch berdi.

Qozoq va o'zbek xalqlarining tarixiy ildizi juda chuqur. Oltin O'rda davridan boshlab, undan ham oldin qozoq va o'zbek ajdodlari bir xalq bo'lib yashagan. O'shandan beri ikki xalq hech qachon ajralmagan. Shu sabab o'zbek va qozoq xalq o'zaki ijodida o'xshashlik juda ko'p. Bu tarixiy yaqinlik ikki xalq do'stligini abadiy mustahkamlovchi yangi badiiy asarlar uchun zamin bo'la oladi.

o'zbek tilida chop etilgani ham fikrimizni isbotlaydi.

Barno Is'hoqova va Xosiyat Bekmirzayeva kabi adabiyotshunoslarning o'zbek adabiyoti targ'ibotiga katta hissa qo'shib kelyapti. Marqaboy Amatov, Nurlan Qalibekov, akademik Abdullajon Akmataliyev singari ijodkor va tarjimonlar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy a'zosi ekanidan g'ururlanamiz.

2022-yilda nashr etilgan "Turkiy adabiyot durdonalari" 100 jildli asarlar majmuasining 9 jildi qirg'iz adabiyotiga bag'ishlangani biz, qirg'iz ijodkorlariga bo'lgan yuksak hurmat namunasini. Qirg'iz adabiyotining mumtoz vakillarini hozir ijod bilan shug'ullanayotgan shoir va yozuvchilariga alohida e'tibor berilgan. Tugalboy Sidiqbekovning "Ko'k yalov", To'lan Jo'ldo'shiyevning "Manas", Qosim Sulaymonovning "Vahshiylar saltanati" romanlari majma uchin maxsus tarjima qilindi. Majmuaga kiritilgan asarlardan qirg'iz ijodkorlari Murza G'aparovning qissa va hikoyalari, Tugalboy Sidiqbekov, Sobir Burqashev, Qosim Sulaymonovning romanlari O'sh viloyatida istiqomat qiluvchi o'zbek yozuvchilari tomonidan tarjima qilib berildi.

Bugungi tahlilali mutaassiblik, millatchilik, giyohvandlik, axborot urushlari, globalizmning salbiy ta'sirlari kabi tahdidlarga qarshi turishda ziyolilar birinchi safda bo'lishi lozim. Zero, adabiyot, teatr, kino, rassomlik, tarixiy tadqiqotlar, ta'lim — bularning barchasi yosh avlod ongida fikriy immunitetni shakllantiruvchi ma'naviy qalqondir. Bu qalqon xalqlarimizni birlashtiradi, qalqlarimizni yaqinlashtiradi, umumiy kelajak sari yetaklaydi.

\*\*\*  
Ijodkor do'stlarimiz bilan shubhat chog'ida qardoshlarimiz samimiyat ila "O'zbekcha gapiravering", dedi. Qizig'i, bir-birimizni qiyinchiliksiz tushundik. Hayot tarzimiz, qadriyatlarimiz, dillarimiz, mustarak ekani olis masofadan ham shundoqqina sezildi. Ular bizni, biz ularni mehmonga chorladik. Ko'ngilga ajib yorug'lik indi. Bizni qadim ildizlarga tutashgan va keyingi yillarda yangilarga qiyofa kasb etgan Markaziy Osiyo ruhi birlashtirib turganini teran his etdik.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri**  
**Munajat Mo'minova**  
tayyorladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-346.  
37346 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taboq. O'qset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy